



MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINHLIGIMIZ POSBONI!

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

VATANPARVAR



O'ZBEK AYOLI

Bir xilqatki, unda nurni anglaysiz,
Ona degan baxt, sururni anglaysiz,
El-u yurtning ori uning qo'lida,
Vatan degan sha'n, g'ururni anglaysiz,
To'maris vorisi o'zbek ayoli.

Qanoat-u sadoqatda yagona,
Go'zalligi dostonlarda afsona,
Nozik xilqat atashsa-da, asli u
Yurt koriga yelka tutar mardona,
To'maris izdoshi o'zbek ayoli.

Buyuk o'tgan ajdodlarga vorisdir,
O'g'il-qizi har jabhada jahongir,
Nafis vujud tomirida shaxt oqar,
Mard erlardek ulug' ishlarga qodir,
To'maris vorisi o'zbek ayoli.

Zulfiya YUNUSOVA,
"Vatanparvar"

8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY,
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING
4-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN
WWW.MV-VATANPARVAR.UZ

2026-YIL 7-MART
№10 (3176)



Ortga qaytmas islohotlar

SURXONNI RIVOJLANTIRISH YANGI O'ZBEKISTONNING JANUBIY TAYANCH USTUNINI MUSTAHKAMLASHDIR

Surxondaryo – tog'lar bag'rida jasorat va matonat ruhi mujassam bo'lgan, asrlar sadosini saqlab kelayotgan betakror diyor. Bu zaminda har bir tosh, har bir dovon go'yo tarixdan so'zlaydi. Bobolar izi tushgan muqaddas tuproqda sadoqat, mehnat va mardlik tuyg'usi uyg'unlashib ketgan.

Janubiy sarhadlarga tutash ushbu hududning strategik ahamiyati beqiyos. Bu yerning tuproqlarini himoya qilish nafaqat sharaf, balki yuksak mas'uliyat demak. Chegarada tunni tongga ulab, Vatan osoyishtaligini ta'minlayotgan sarbozlar qalbida ona yurtga muhabbat, ko'zlarida esa ogohlik va qat'iyat mujassam. Tog'lar bag'ridagi harbiy qismlarda intizom va tartib, sadoqat va matonat hayot mezoniga aylangan.

Yurtimizda islohotlar ko'lami oshgani sari voha salohiyati ham tobora yuksalib, yangi marralar sari yo'l kengayib bormoqda. Xususan, so'nggi o'n yilda viloyat qiyofasi tubdan o'zgardi. Yangi turarjoy massivlari, zamonaviy ko'p qavatli uylar, harbiy qism va shaharlar barpo etildi. Shuningdek, zamonaviy infratuzilma va iqtisodiy yuksalish bilan bir qatorda, harbiy sohada ham keng ko'lamli yangilanishlar amalga oshirilmog'da. Harbiy qismlar zamonaviy texnika va qurol-aslahalar bilan ta'minlanib, milliy armiyamiz qudrati va jangovar salohiyati mustahkamlanmog'da. Yangi avlod harbiy texnikalari, raqamli boshqaruv tizimlari va ilg'or muhandislik yechimlari qo'shinlarning harakatchanligi, aniqligi va tezkorligini oshirishga xizmat qilmog'da.

Ana shunday o'zgarishlar ruhi ufurib turgan vohaga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari tashrifini an'anaga ko'ra, Hakim Termiziy maqbarasi ziyoratidan boshladi. Muqaddas qadamjoda duo va tilovatlar yangrab, yurt tinchligi, xalq farovonligi va sarhadlar daxlsizligi so'rab niyat qilindi.

Ulamolar bilan suhbatda islom dini rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk alloma, vatandoshimiz Hakim Termiziyning ma'naviy-ma'rifiy merosini chuqur o'rganish hamda yurtdoshlarimiz va xalqaro jamoatchilik o'rtasida keng targ'ib qilish haqida so'z yuritildi.

Shuningdek, muqaddas dinimizning ezgulik va insonparvarlik, mehr-shafqat kabi buyuk fazilatlarini, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash hamda rivojlantirish, shu asosda yosh avlodni ezgu g'oyalar ruhida tarbiyalash, yosh avlod qalbida vatanparvarlik va sadoqat tuyg'ularini yanada kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi.

Bugun Hakim Termiziy ziyoratiga kelganlarning ko'ngli yanada shod bo'ladi. Sababi keyingi yillarda ziyoratgoh ta'mirlanib, yanada obod va go'zal majmuaga aylandi. Ushbu tabarruk maskanda ziyoratchilar uchun barcha sharoit yaratildi. Atrof obodonlashtirilib, maqbarada ham katta hajmdagi

ishlar bajarildi. Zamonaviy yoritqichlar, isitish va sovitish tizimlari o'rnatildi. Majmuada mikroiklim yaratish uchun to'rt mingdan ortiq 40 turdagi ko'p yillik manzarali daraxt, 20 mingdan ziyod mavsumiy anvoyi gul ekilgan.

Islom ilmlarining tafsir, hadis, fiqh, kalom, islom falsafasi, tasavvuf tarixi, tasavvufiy qarashlar kabi sohalarida ko'plab asar yozgan mutafakkir majmuasini obod saqlash, ziyoratchilar uchun qulayliklarni kengaytirish yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev viloyatga tashrifi davomida harbiy qismda ham bo'ldi.



Mazkur tashrif oddiy rasmiy safar emas, balki sarhadlarimizni begona ko'zdan himoya qilayotgan har bir askar va ofitser xizmatiga berilgan yuksak e'tibor, ularga bo'lgan ishonch va hurmat ifodasi bo'ldi.

Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondonining harbiy qismda bo'lishi, yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishishi, harbiy xizmatchilar bilan muloqot qilishi askarlar qalbida katta ruhiy ko'tarinkilik uyg'otdi. Saf tortib turgan harbiylar chehrasida g'urur, qalbida esa "Vatan himoyasi – muqaddas burch" degan e'tiqod yanada mustahkamlandi. Bu uchrashuv armiya va xalq o'rtasidagi mustahkam bog'liqlikni, yurt tinchligi va xavfsizligini ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlarning izchilligini yana bir bor namoyon etdi.

Mamlakatimiz mudofaa tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar qo'shinlarning jangovar salohiyati va harbiy-ma'muriy sektorlar faoliyatini yanada yuksaltirishda muhim omilga aylanmog'da.

Mazkur qismda ham harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligini oshirish uchun barcha shart-sharoit yaratilgan. O'quv binolari, oshxona, yotoqxona, ma'naviyat va ma'rifat xonalari, sport shaharchasi eng zamonaviy texnika va uskunalar bilan jihozlangan.

Hozirgi kunda turli mintaqaviy mojarolarda sun'iy intellekt, robot, raketa, dron va ularga qarshi vositalar keng qo'llanmog'da. Shundan kelib chiqib, Oliy Bosh Qo'mondon tomonidan qo'shinlarda dronlar va ularga qarshi kurashish, sun'iy intellekt bilan ishlaydigan kibertuzilmalar, robotlashgan texnikalarni qo'llash va havo hujumidan mudofaa tizimi bo'yicha yangi bo'linmalarni tashkil etish vazifasi qo'yilgan edi.

Bugungi kunda mazkur topshiriqlar ijrosi doirasida tizimli ishlar amalga oshirilmog'da. Milliy armiyamiz zamonaviy qurol-aslaha, ilg'or razvedka va kuzatuv tizimlari bilan ta'minlanmog'da. Harbiy



xizmatchilarning kiberxavfsizlik, dronlarni boshqarish va ularga qarshi kurashish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirishga alohida e'tibor qaratilmog'da.

Davlatimiz rahbari harbiy qismda yaratilgan sharoitlar, shaxsiy tarkib uchun barpo etilgan zamonaviy infratuzilma, jangovar tayyorgarlik jarayonlari hamda yangi harbiy texnika va qurol-aslahalarni ko'zdan kechirdi. Jumladan, zamonaviy havo hujumidan mudofaa komplekslari, uchuvchisiz apparatlarga qarshi mo'ljallangan radioelektron kurash vositalari va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarining imkoniyatlari namoyish etildi. Ular orqali havo hududini ishonchli muhofaza qilish, ehtimoliy tahdidlarni barvaqt aniqlash va bartaraf etish imkoniyatlari yanada kengaymog'da.

Milliy armiyamizni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilashda zamonaviy qurolli mojarolar tahlili, xavfsizligimizga mavjud va ehtimoliy tahdidlar, shuningdek harbiy harakatlar teatrining o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'rganish zarurligi ta'kidlandi. Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini oshirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, shaxsiy tarkibning jangovar va ma'naviy-ruhiy shayligini yuksaltirish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosini izchil davom ettirish yuzasidan mutasaddilarga aniq topshiriqlar berildi.

Umuman olganda, bugungi kunda milliy armiyamizni zamonaviy talablar asosida rivojlantirish vaqt talabi, xavfsizlikning mustahkam poydevori va kelajakka qaratilgan strategik qadamdir. Jahonda harbiy texnologiyalar shiddat bilan taraqqiy etayotgan bir sharoitda Qurolli Kuchlarimizni ilg'or qurol-aslahalar, raqamli boshqaruv tizimlari va sun'iy intellektga asoslangan yechimlar bilan ta'minlash mamlakat mudofaa qobiliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmog'da.

Eng muhimi, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan bir qatorda, harbiy xizmatchilarning bilimi, tajribasi, ma'naviy barqarorligi va Vatanga sadoqati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois shaxsiy tarkibning jangovar tayyorgarligini oshirish, ularni zamonaviy tahdidlarga munosib javob qaytarishga qodir mutaxassislar etib tayyorlash, yoshlarda harbiy kasbga hurmat va qiziqishni kuchaytirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmog'da.

Qurolli Kuchlarimizning salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan keng qamrovli islohotlar yurtimiz tinchligi va barqarorligini ta'minlashga, sarhadlarimiz daxlsizligini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi.

Zero zamonaviy bilim va texnologiyalar bilan qurollangan, yuksak ruh va sadoqatga ega armiya mustaqil davlatimizning mustahkam qalqoni va xalqimiz osoyishtaligining kafolatidir.

**Leytenant
Mansurbek JABBOROV,
"Vatanparvar"**



Mardlik ramzi

ASKARIY BIRODARLIK HAQIDA mulohazalar

KIMDIR ARMIYANI hayot maktabi deydi, kimdir intizom va tarbiya o'chog'i sifatida baholaydi. Yana kimdir uni Vatan oldidagi muqaddas burch deb biladi. Bularning barchasi haqiqat. Ammo harbiy xizmatning yana bir xislati va inson qalbiga umrbod muhrlanadigan jihati bor, bu – askariy birodarlik – jangovar do'stlik.

ASKARIY BIRODARLIK. U bir sinfda o'qish, bir mahallada ulg'ayish yoki bir joyda ishlash orqali paydo bo'ladigan munosabatdan mutlaqo farq qiladi. U qiyinchilik, xavf-xatar, mashaqqat va mas'uliyat ortida shakllanadi.

U insonning asl qiyofasi namoyon bo'ladigan vaziyatlarda sinovdan o'tadi. Shuning uchun ham u samimiy va mustahkamdir.

ARMİYAGA YANGI KELGAN yigitlar turli viloyatlardan, turli oilalardan va bir-biriga begona tarbiya muhitidan chiqqani sabab harbiy hayotga birdaniga ko'nika olmaydi. Kimdir shaharlik, kimdir qishloqlik. Kimdir muloyim, kimdir tezkor, fe'l-atvorlar ham turlicha. Ilk

keyin Bahodir o'z o'g'liga do'stining ismini berdi. **Bu qaror oddiy ehtiromdan ancha yuqori ma'noga ega edi.** Bu birodarlikka sadoqat, xotiraga vafo, do'stlikka hurmat ifodasi edi. Bugun o'sha Shermuhammad harbiy uchuvchilikka qadam qo'ygan, Vatan osmonini himoya qilishga tayyorgarlik ko'rmoqda. Demak, askariy birodarlik bir inson umri bilan cheklanmaydi, u avlodlar orasida davom etadi.

MINGLAB YILLIK boy tariximizga nazar tashlasak, buyuk sarkardalarimizning g'alabalari ortida ham hamisha sadoqatli safdoshlar turganini ko'ramiz. Xususan, Bobur hayoti sarsonlik va kurashlar bilan to'la bo'lgan. U o'z yurtidan ayrilib, uzoq ketdi, o'zga yerlarda jang qildi, kurashdi. Ammo u yolg'iz emas edi. Uni qo'llab-quvvatlagan, og'ir damlarda tark etmagan safdoshlari bor edi. Ana shu birodarlik ruhi keyinchalik Boburiylar davlatining barpo bo'lishiga zamin yaratdi.

AMIR TEMURNING atrofida ham doimo sadoqatli amirlar bo'lgan. Sulaymonbek barlos, Jakubek barlos, Husaynbek barlos, Sayfuddinbek nukuz, Dovudbek dug'lat,

Abbosbek qipchoq, Muayyadbek arlot, Oqbug'abek nayman, Shayx Alibek bahodur, Elchibug'abek bahodur kabi safdoshlar Temur bilan birga juda ko'p – sanoqsiz sinovlardan o'tgan. Ular faqat jangchi emas, balki istalgan vaqtda jonini o'rtaga qo'ya oladigan, mashaqqatda yelka tutadigan, zarur paytda ruhiy quvvat bo'ladigan do'stlar edi. Ularni birlashtirgan kuch bu jangovar do'stlik – askariy birodarlik edi.

BUGUNGI KUNDA har kim o'z manfaati va maqsadi bilan band. Ammo jamiyat mustahkam bo'lishi uchun o'zaro ishonch va hamjihatlik zarur. Bunday fazilatlar adolat va qat'iy intizomga asoslangan armiya misolida yaqqol namoyon bo'ladi. Shu ma'noda yigitlarning Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatni o'tashiga faqat burch emas, balki jamiyatni birlashtiruvchi, uning ma'naviy poydevorini mustahkamlovchi omil sifatida qarash lozim.

Askariy birodarlik zarurat tug'ilganda o'z hayotini ayamay, safdoshini himoya qilish, qiyin lahzalarda yelkadosh bo'lish, Vatan va millatning or-nomusi va qadr-qimmatini yuksak tutish demakdir. Bu o'ziga va boshqalarga nisbatan hurmatni saqlash, qo'pollik va tahqirga yo'l qo'ymaslik, safdoshini noliyiq qilmishdan qaytarish, uning sha'nini o'z sha'nidek asrashdir. Jangovar qo'shinlar safida xizmat qilgan yoshlar



ana shu ruhda toblanadi, o'zini jamiyat oldida mas'ul fuqaro sifatida his eta boshlaydi. Armiyada shakllangan intizom va birodarlik tuyg'usi fuqarolik hayotiga ko'chib, jamiyatda o'zaro hurmat va ishonchni mustahkamlaydi.

JADID MA'RIFATPARVARI Vadud Mahmudning "Turklar ot ustida yurar, ot uzarinda uxlar va o'lar edi", degan so'zlarida jasorat, chidamlilik va jangovar ruh mujassam. Bu iboralar zahirida avvalo, birodarlik va unga yondosh fazilatlar bor, albatta.

Birinchi ming yillik tarixchisi va geografi Istaxriy "O'lkalar va yo'llar" asarida Turon ahli haqida yozar ekan, ularning kattalarga itoatda namuna, yoshi ulug'larga xizmatda xokisor ekanini alohida qayd etadi. Ularning qo'rqmasligi, jur'ati va jasorati bois boshqa xalqlardan ajralib turishini e'tirof qiladi. Movarounnahrda 300 ming qishloq bor, har biridan bir suvoriy va bir piyoda chiqsa ham, aholisi uchun yo'qotish bo'lmaydi, deya bir vaqtning o'zida 600 mingdan ortiq qo'shin to'planishi mumkinligi qayd etadi.

Bu tarixiy haqiqat shuni anglatadiki, **askariy birodarlik qo'shin ichidagi munosabat bo'lish bilan birga, millatning ma'naviy qiyofasini belgilab, uning birligi va kuch-qudratini ta'minlaydigan asosiy omildir.** Ya'ni birodarlik ruhi bor joyda intizom bo'ladi, intizom bor joyda esa taraqqiyot va barqarorlik qaror topadi.

Demak, askariy birodarlik tufayli yigitlar mard bo'ladi.

Askariy birodarlik tufayli armiya kuchayadi. Askariy birodarlik tufayli millat birlashadi.

Furqat ERGASHEV,
"Vatanparvar"



kunlarda begonasirash, tushunmovchiliklar, hatto kichik nizolar bo'lishi tabiiy hol.

Ammo armiyaning o'ziga xos qonuniyatlari bor. U yerda barcha bir xil kiyim kiyadi, Vatanga birdek qasamyod qiladi, bir xil vazifani bajaradi. **Harbiy xizmatning umumiy maqsadlari yigitlarni bir-biriga qalban yaqinlashtiradi.** Jangovar mashqlar, tungi navbatchiliklar, taktik dala yig'inlari – bular navqiron, bilagi kuchga to'lgan azamatlarni birlashtiradi.

Kechagina bir-birini tanimagan yoki biroz yovlashgan yigitlar ko'p vaqt o'tmay, bir-birining kayfiyatini ko'z qarashidan anglaydigan darajaga yetadi. Kimdir kasal bo'lsa, boshqalar uning o'rniga navbatga turadi. Kimdir tushkunlikka tushsa, safdoshlari uni qo'llab-quvvatlaydi. Ana shu jarayonda jamoa bir tan, bir jonga aylanadi.

Xizmat tugab, uyga qaytish kuni kelganda esa bu birodarlikning qiymati yanada aniq seziladi. Xayrlashish oson kechmaydi. Ko'zlarda yosh, yuraklarda hayajon... Chunki bir yil davomida birga chekilgan mashaqqat, birga o'tkazilgan issiq-sovuq kunlar... qiyinchilikni birga yenggan jamoadan ajralish oson kechmaydi. Ular har yili uchrashishga va'dalashishadi. Bu askariy birodarlikning hayotdagi eng samimiy namoyonidir.


2000-YIL. SARIOSIYO. Jangovar harakatlar. Yurtimiz tinchligiga tahdid solgan kuchlarga qarshi olib borilgan operatsiyalar vaqti. Bu voqealar ko'plab harbiylar hayotida o'chmas iz qoldirdi. Ana shu sinovli kunlarda harbiy uchuvchi katta leytenant Shermuhammad Ashirov va uning safdoshi Bahodir Toshmuhammedov o'rtasidagi birodarlik yanada mustahkamlandi. Shermuhammad Ashirov shahid bo'lganidan



Suratlar tahririyat arxividan olindi



Din – bag'rikenglik va insonparvarlik yo'li



VATAN VA E'TIQOD BIRLIGI — MA'NAVİY KAMOLOT ASOSI

Inson qalbida shunday muqaddas tuyg'ular borki, ularni hech qanday kuch zo'rlik bilan yo'q qila olmaydi. Bu Vatanga muhabbat va e'tiqodga sadoqat tuyg'usidir. Kim qaysi zaminda tug'ilib ulg'aysa, o'sha yer uning taqdiriga, orzu-umidlariga aylanadi. Shuningdek, inson qalbidagi ishonch, iymon va ma'naviy tayanch ham uning shaxs sifatida kamol topishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Vatan va din tushunchalari bir-biriga zid emas, aksincha, ular insonni barkamollikka yetaklovchi ikki qanotdir.

tarmoqlarni pichoqqa o'xshatadilarki, uning foydali tarafi bo'lganidek, zararli tarafi ham bor. Siz yoshlar bunday tarmoqlardan faqatgina oqilona foydalaning. Uning zararli tarafidan ehtiyot bo'ling!

Ha, bugungi axborot maydonida ayrim ekstremistik oqimlar muqaddas tushunchalarni o'z manfaatlarini yo'lida suiiste'mol qilib, yoshlar ongini zaharlashga urinmoqda. Ular "haqiqat", "adolat", "shahidlik" kabi jozibali so'zlarni niqob qilib, siyosiy va vayronkor maqsadlariga yetish uchun yoshlarning pok tuyg'ulari va idealidan foydalanmoqda. Shu o'rinda nega ayrim yoshlar bunday yo'lga kirib qoladi, degan tabiiy savol tug'iladi. Bu savolga javob izlar ekanmiz, masalaning faqat tashqi omillar bilan emas, ichki ma'naviy bo'shliq bilan ham bog'liq ekanini ko'ramiz. Yosh inson hayotda o'z o'rnini topishni istaydi, katta maqsadlar orzu qiladi. Agar uning bu intilishlari adolat, sog'lom muhit va zarur bilimlar bilan qo'llab-quvvatlanmasa, uning qalbini va ong-u shuurini yot g'oyalar egallab olishi mumkin.

Bugun internet axborotning cheksiz manbaiga aylandi. Ko'p bor ta'kidlanganidek, ijtimoiy tarmoqlar ulkan ma'lumotlar, xabarlar bozoriga o'xshaydi. Bu bozorda esa har xil "mahsulot" bor: foydali bilim ham, zararli g'oya ham. **Ularning asosiy xaridori yoki iste'molchisi bo'lgan yoshlar axborotni saralash, tahlil qilish va tekshirish ko'nikmasiga ega bo'lmasa, u ba'zi xabarlar zahiridagi yot g'oyalar ta'siriga tez beriladi, ishonadi.**

Ekstremistik guruhlar aynan internet orqali ko'plab foydalanuvchilar bilan shaxsiy

muloqot o'rnatadi. Ular dastlab do'stona maslahatchi sifatida namoyon bo'ladi, keyin asta-sekinlik bilan radikal fikrlarni singdira boshlaydi. Muqaddas kitoblardan ayrim jumalarni uzib olib talqin qilish, ijtimoiy muammolarni bo'rttirib ko'rsatish, "jannat" va'dalari bilan hissiyotga ta'sir o'tkazish ularning eng ko'p qo'llaydigan usullaridir. Natijada yosh odam o'zini "ezgu ish" qilayotgandek his qiladi, ammo aslida u o'z taqdirini xavf ostiga qo'yadi.

Bunday adashishning oqibatlarini esa ayanchli. Oiladan uzilish, qonun oldida javobgarlik, begunoh insonlar hayotiga zomin bo'lish... Bularning ortida ota-onaning ko'z yoshi, iztirobi va jamiyatning dardi turadi. Shuning uchun bu muammoga befarq qarash mumkin emas. O'sib kelayotgan yoshlarni bunday tahdidlardan asrashning birdan bir samarali yo'li taqiq yoki jazo emas, avvalo ma'rifat va samimiy muloqot bo'lishi kerak. **Yoshlarda mustaqil fikrlash qobiliyatini, ularda har qanday axborotni tahlil qilish, manbasini tekshirish va xulosa chiqarishni o'rganish ko'nikmasini hosil qilish zarur.**


Sog'lom diniy bilimni dinni o'z manfaati yo'lida ijtimoiy tarmoqlarda talqin qilayotgan qandaydir guruhlardan emas, ishonchli va rasmiy manbalardan o'rganish zarur. Chunki haqiqiy diniy ta'limot zo'ravonlikni emas, inson hayotining muqaddasligini ulug'laydi. Bu holatda oila va jamoatchilikning roli beqiyos. Avvalo, o'smirlar o'z savollariga javobni uyida, maktabida yoki

yaqinlaridan topishi zarur. Aks holda u yolg'on manbalarga murojaat qiladi, buning natijasi barchaga ayon.

Yoshlar qalbida sog'lom e'tiqod, tanqidiy fikr va Vatanga muhabbat uyg'unlashsa, hech qanday buzg'unchi g'oya ularni yo'ldan ura olmaydi. Chunki qalbida nur bor inson zulmatni tez anglaydi. Haqiqiy din esa ana shu nurni asrashga xizmat qiladi.

Din qo'rquv va adovat emas, aksincha mehr, sabr va yaratuvchanlik yo'li bo'lib, u insonni o'z Vatanga sadoqatli, oilasiga mehribon, jamiyatga foydali shaxs bo'lishga chaqiradi. **Bugungi murakkab axborot zamonida eng katta g'alaba yoshlarning ongini sog'lom, qalbini pok saqlab qolishdir.** Agar biz dinning haqiqiy mohiyatini – bag'rikenglik va insonparvarlik ruhini anglab, uni hayotimizga tatbiq etib, yoshlarimizga ham yetkaza olsak, jamiyatimiz tinch, barqaror va ma'naviy jihatdan mustahkam bo'ladi.

Furqat ERGASHEV,
"Vatanparvar"



Muqaddas islom dini tarixida Muhammad (s.a.v.)ning Makkadan Madinaga hijrat qilishlari bu haqiqatni, ya'ni Vatan va din tushunchalari bir-biriga zid emasligini yana bir bor tasdiqlaydi. U zot tug'ilib o'sgan yurtini tark etayotganida qalbidagi muhabbat va hasratni ochiq izhor etganlar. Tug'ilib o'sgan Vatani Makkayi Mukarramaga yuzlanib turib: "Agar qavmim meni Makkadan chiqib ketishga majbur qilmaganida, hech ham o'z ixtiyorim bilan uni tashlab ketmagan bo'lur edim" deganlari siyrati nabaviya kitoblarida bayon etilgan. Demak, **Vatanni sevis, vatanparvar bo'lish, undagi bor narsalarni ardoqlab, sog'inib yashash insoniyat tabiatida mavjud bo'lgan nozik his tuyg'udir.** Bu hodisa din insonni o'z Vatanidan bezdirmaydi, balki uni yanada qadrlil qiladi, degan xulosani beradi. Chunki haqiqiy e'tiqod insonni adovatga emas, mehr-shafqatga chorlaydi.

"Har bir insonga ma'lumdurki, dunyo hayotida insonning eng sevgan, qadr-qimmatli to'rt narsasi bordir. Bu to'rt narsaga ega bo'lmagan kishilar chin insonlik sharafigidan mahrum bo'ladi. **Ular: ozodlik va erkinlik, mehnat bilan topilgan boylikka o'zi egalik qilish, tug'ilib o'sgan ona Vatani va asrlar bo'yi e'tiqod qilib kelgan muqaddas dinidir.**" Buyuk alloma ma'rifatparvar Alixonto'ra Sog'uniy alohida qayd etgan bu qadriyatlar bir-biriga uyg'un bo'lganda jamiyat mustahkam bo'ladi.

O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy shayx Nuriddin Xoliqnazar "Yoshlarga nasihatim" kitobida shunday yozadi:

"Bugun axborot xuruji shu qadar ko'paydiki, o'smirlar u yoqda tursin, aql-u hushini yig'ib olgan kishilar ham internetda berilgan xabarlarining qaysi biri to'g'ri qaysi biri noto'g'ri ekanini ajratishi qiyin bo'lib qoldi.

Aziz o'g'il-qizlarim! Hozirgi ilmfan taraqqiy etgan bir davrda internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlar ommalashdi. Ular orqali har bir inson o'zi uchun kerakli ma'lumot va xabarlarini tez fursatda bilib oladi. Lekin ulamolarimiz ijtimoiy

Sohibqiron tavalludining 690 yilligiga

AMIR TEMURNING UZUGI

“

Amir Temur hazratlarining hayratomuz sirli uzuklari haqida bu kunga kelib, yangi ma'lumotlar ayon bo'ldi. Chunki bu qimmatbaho durdona O'zbekistonning tarixiy yodgorliklaridan biri bo'lib, tarix zarvaraqalarida tengsiz, misli ko'rilmagan topilmadir. Shu bois ushbu maqolada ana shu mashhur uzuk haqida fikr yuritamiz. Ba'zi bir xorijiy mamlakatlarda e'lon qilingan tarixiy ma'lumotlarda Amir Temur tamg'asi zarb qilingan bu nodir buyum Avstriya yoki Italiyadagi muzeylardan birida tarixiy yodgorlik sifatida saqlanib kelinayotgani taxmin qilinadi.



Afg'onistonning atoqli tarixshunos olimlari – akademik Inoyatillo Shahroniy, Nurilloxon Tolqoniy, Abdulhamid Muboriz va Ustod Xalillo Xaliliy janoblarining dariy tilida chop etilgan maqolalarida ham ushbu sirli uzuk tilga olinadi. Ularning qo'llarida bo'lgan birlamchi hujjatlar tahlili bo'yicha sohibqiron Amir Temurning ushbu uzugi haqida mufassal ma'lumotlar beriladi.

Ushbu maqola orqali O'zbekistonning ilmiy jamoatchiligi va Amir Temur jamg'armasi mas'ul xodimlarini ushbu mavzuga diqqat-e'tiborini qaratmoqchiman. Shoyad bu yodgorlik bo'yicha tegishli ilmiy izlanishlar olib borilsa va xalqimizga ushbu noyob, bebaho buyum haqida batafsil ma'lumot berilsa.

Afg'onistonda chop etilgan Abdulhamid Muboriz va Ustod Xalillo Xaliliyning maqolalarida ushbu uzuk hozir qayerda, qaysi mamlakatda yoxud qaysi shaxsiy kolleksiyada ekani mavhum bo'lib qolayotgani ta'kidlanadi. Afg'onistonning madaniyat vaziri muovini lavozimida ishlab kelgan Abdulhamid Muborizning "Tarix dahasidagi asosiy qonun" kitobida yozilishicha, 1973-yilning 27-mayida Afg'onistonning sobiq podshohi Muhammad Zohirshoh Rim shahridan jiyani Muhammad Dovudga maktub yo'llab, topilmani qaytarishni iltimos qilgan ekan:

"Oliyqadr Muhammad Dovudxon janobi oliylariga! Nihoyat, samimiy qizg'in salomlarni Sizga yo'llab, barcha arkoni davlatlaringiz bilan Sizga sog'liq-salomatlik, uzoq umr va kelajak ishlaringizda ulkan yutuq, omadlar tilab, qon-qarindoshlaringiz nomidan quyidagi iltimosnoma bilan murojaat etaman. Albatta, kaminangizning hurmat va iltimosini bajo etgaysiz. Mening ish joyimda Sulton Husayn Boyqarodan qolgan bir dona nodir qo'lyozma va bir dona qimmatbaho uzukni menga yuborsangiz bas, deb umid qilaman. Menga boshqa mulk-u davlat kerak emas".

Ushbu maktubdan darak topgan "Ark" saroyining bosh qo'mondoni general Muhammad Ziyo yuqorida nomi qayd etilgan nodir qo'lyozma va uzukni pinhona olib, Avstriyaga jo'naydi va u yerdan siyosiy boshpana so'rab, shu mamlakatda qoladi. Nurillo Tolqoniyning so'zlariga qaraganda: "Ushbu uzuk Avstriyadagi muzeylardan biriga katta mablag' evaziga sotilgan". Boshqa olimlar Zohirshoh janoblarining o'zlari Italiyadagi muzeylardan biriga ushbu noyob topilmani sovg'a qilib yuborgan degan fikr-mulohazalarni ham bayon etgan.

Bu taxminlarning qaysi biri haqiqatga to'g'ri kelishini hozircha hayot bo'lgan 91 yoshli Muhammad Zohirshoh janoblari aniqlik kiritishi mumkin.

Afg'onistondagi "Majallayi Oryona" jurnalining 1333-hijriy-shamsiy yil, 9-son, 13-15-betlaridagi marhum Ustod Xalillo Xaliliyning "Sulton Husayn Boyqaro oromgohi" degan maqolasida ushbu uzuk sobiq Afg'oniston podshohi Muhammad Zohirshoh janoblariga hadya qilingani to'g'risida mukammal ma'lumot berilgan.

Hozirda Amerika Qo'shma Shtatlari shaharlaridan birida ilmiy tadqiqot olib borayotgan tarixshunos olim, akademik Inoyatillo Shahroniy janoblarining ta'kidlashicha, bu uzuk sohibqiron Amir Temurga tegishli bo'lib, uning gardishida quyidagi so'z "Rosti-rusti" "Kuch adolatdadir" iborasi borligini va boshqa belgilarni tahlil etadi. Aynan shu so'zlar sohibqirona tegishli ekani tarixiy ma'lumotlarda o'z aksini topgani hammaga ma'lum. Bu olimning fikricha, aslida bu uzuk ilk bor turk xoqoni O'g'uzxonga tegishli bo'lgan. Ushbu bebaho durdona turk xoqonligi sulolalaridan avloddan avlodga meros bo'lib o'tib, IX asrda Xolid Binni Barmak qo'lga kelib tushgani haqida ham rivoyat bor.

Aytishlaricha, turk shahzodalaridan biri Bag'dod shahriga safar qilib, Xolid binni Barmakning huzuriga kirishga izn so'raydi. Podshohning ijazati bilan uning qabuliga qadam qo'yadi. Xolid binni Xolidning soniga bog'langan, uni barcha xavf-xatardan, taomiga zaharli moddalar aralashtirilgani va boshqalardan ogoh qiluvchi moslama darhol tebrana boshlaydi. Podshohning amri bilan ushbu shahzoda hibs etilib, tintuv o'tkaziladi, qo'riqchilar uning qo'lidagi uzukni musodara qiladi. Uzuk tahlildan o'tkazilganda qimmatbaho brillianti borligi, gavharning tagida esa maxsus zahar saqlanadigan chuqurcha o'yilgani aniqlanadi. Xolid Binni Barmakning moslamasi va shahzodaning qo'lidagi uzuk bir xil sehrli kuchga ega ekani tadqiqotlardan keyin ma'lum bo'ladi. Bu ikki jism o'z egalariiga tashqi va ichki xavf-xatar yoki taomga zaharli moddalar aralashtirilgan bo'lsa, darhol ogoh etuvchi belgilarni namoyon qilish xususiyatiga ega bo'lgan.

Bu g'aroyib uzuk bilan Husayn Boyqaro barmoqlaridan olingan uzuk bir xil xususiyatlarga ega ekani Xalillo Xaliliy maqolasida ishonarli ochib beriladi. U mazkur uzuk Husayn Bayqaro maqbarasidan topilganini hamda ayni bir buyum ekanini taxmin qiladi.

1965-yilda Hirot shahrida Xo'ja Abdulla Ansoriyning tavallud topgani ming yilligini nishonlash munosabati bilan o'tkazilgan jahon xalqaro qo'lyozmalar ilmiy konferensiyasida Sulton Husayn Boyqaro va Mir Alisher Navoiy qabrlarini ochib, tegishli tadqiqotlar o'tkazish haqida qaror qabul qilindi. Shu qarorga asosan, Rizo Moil Hiroviy, alloma Ustod Xalillo Xaliliy, akademik Salohiddin Saljuqi va boshqa bir qancha xorijiy ekspertlar ishtirokida qabrlar ochilib, tadqiqotlar olib borildi. Shunda Husayn Boyqaro jasadining o'ng qo'l ko'rsatkich barmog'ida g'aroyib uzuk topiladi. Olimlar uni o'rganishni boshlaydi. Ustod Xalillo Xaliliy bu noyob topilmani o'z qo'li bilan Muhammad Zohirshohga tuhfa qiladi. Mazkur dalillarga asoslanib, shuni xulosa qilish mumkinki, bu ajoyib-g'aroyib topilma sohibqiron Amir Temurdan uning avlodlariga meros bo'lib o'tgan.

Sharqshunos Turg'un Fayziyevning "Husayn Boyqaroning sirli o'limi" asarida shunday yozadi: "Tarixchi Xondamirning yozishicha, Sulton Husayn Boyqaroning jasadi o'zi qurdirgan madrasa gumbazi ostiga dafn etilgan. Madrasa Musallo yoniga qurilgan bo'lib, o'zining salobatli va muhtashamligi bilan kishini lol qoldiradi. Biroq XIX asrda, Afg'oniston amiri Abdurahmonxon zamonida ingliz mushovirlari "Ruslar Hiroti zabt etmoqchi, binobarin, baland va ulkan minoralar ularning zambaraklariga nishon bo'lishi muqarrar" deb minoralarni buzib tashlashni maslahat beradilar. Shundan so'ng mahalliy hukmdorlar madrasa minoralarining ostiga dinamit qo'yib portlatadilar. Natijada bir necha osori-atika yodgorliklar kultepaga aylanadi. Jumladan, Sulton Husayn Boyqaro qurdirgan madrasa ham vayronaga aylanadi. Boyqaro qabri vayronalar orasida, ochiq maydonda qolib, bir oz yerga cho'kkan, ustiga o'rnatilgan marmar tosh "Sangi haft qalam" esa bir tomonga og'ib qolgan.

Sulton Husayn Boyqaro maqbarasi qoshiga qo'yilgan "Sangi haft qalam" marmar toshi haqida "Piri Hirot" asarida quyidagi jumlar yozilgan: "Sangi haft qalam" jahondagi xattotlik san'atining bebaho durdonalaridan bo'lib, Husayn Boyqaro tomonidan shaxsan o'z qabriga atab buyurtirilgan qabr toshi edi. Bu qabr toshini sangtarosh nodir xattotlik bezaklari bilan bezashga yetti yillik umrini sarflagan. Ammo taqdir taqozosi bilan 1496-yili Boyqaroning suyuqlik farzandi Shoh G'arib Mirzo vafot etadi va bu qabr toshi yodgorlik sifatida shahzodaning qabriga qo'yiladi. Sulton Husayn Boyqaroning buyrug'i bilan o'sha mohir sangtarosh tomonidan tamoman yangi qabr toshi yasaladi va u vafotidan so'ng qabriga o'rnatiladi.

Bu qisqa maqola nihoyasida yana shuni ilova qilamiz. O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Alining aytishiga ko'ra, ushbu tarixiy uzuk bugungi kunda Amerikada Nyu-York shahridagi "Metropolitan" muzeyining "Islom bo'limi"da saqlanayotgani haqida ma'lumotlar bor. Shunga asoslanib, Muhammad Ali ushbu shaharga borganda, muzeyga qadam ranjida qiladilar, ammo bir tasodif tufayli shu bo'lim ta'mirlash uchun yopilgan bo'lib, uni ko'rolmaydi.

Bunday nodir yodgorlik va qo'lyozma asarlar qayerda saqlanishidan qat'i nazar, tariximiz, madaniyatimiz iftixori, buyuk Turon – Turkiston xalqlarining boy merosi hisoblanadi.

Boshqa bir ma'lumotlarga qaraganda, sohibqironning qo'llarida bo'lgan zarhal qilich hanuzgacha Eron mamlakatining Mashhad shahridagi muzeyda, salobatli sovut kiyimlari esa Turkiyada, "Temur tuzuklari" va Mirzo Ulug'bekning "Ziji Ko'ragoniy" qo'lyozmasi Fransiyadagi muzeylardan birida ekani qayd qilingan.

Abdulla OLIM

Esse

QUSHLAR HAM yig'laydi

Deraza oynasidan tashqariga – shoshib yashayotgan odamlar, serqatnov mashinalarga ko'z tikib, bir nimalar haqida o'yga tolib o'tirgandim. Daf'atan xona eshigi ochilib, safdoshim va hamkasbim leytenant Abror Toshmatov kirib keldi. Ortida bayram tadbirlarida kiyiladigan harbiy libosdagi yigit. U gavdasini g'oz tutib olgan.

Uni birdan esolmadim. To'g'ri, nigohlari tanish. Ammo bu o'lgur xotira pand berayotgandi. O'ylanib qolganimni payqagan leytenant darrov tilga kirdi.

– Prezident stipendiyasini olgan ilk kursantlardan, – dedi Toshmatov samimiy jilmayib. – Qolaversa, kuni kecha davlat rahbari, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni bilan ham uchrashdi. Ha, Prezidentimiz yoshlar ishtirokida o'tkazgan yig'ilishda Hosilbek ham bor edi.

Men yaxshi, degandek bosh silkidim.

– Eslay olmadigiz, a? – deya suhbatga qo'shildi kursant G'ofurjonov past ovozda. – Katta Chimyon tog'igacha bo'lgan yo'lda hamrohlik qilgandik. Ozmi-ko'pmi, qiyinchiliklar qarshisida sinovdan o'tgandik. Birga chekilgan mashaqqatlarda topilgan yo'ldoshingni unutmaysan, degan edi ulug'larimiz. Ammo bu haqiqatga to'g'ri kelmaydiganga o'xshaydi.

U chin ko'ngildan ranjigandi. Chaqnaq turgan ko'zlari o'tmaslashib qolgandek ko'rindi.

Qisqasi, aybni bo'ynimga olib, Hosilbek tomon yurdim. Qo'llarim keng ochilgan. Biz qayta so'rashdik.

Xullas, bu yigit bilan bultur avgustda tanishgandim.

So'qmoq yo'li bo'ylab tog' tayyorgarligi bo'yicha navbatdagi kursda ishtirok etayotgan Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining III bosqich kursantlari bilan birga o'quv joyiga qarab ketyapmiz. Daf'atan qadamlarim og'irlashib qoldi. Xayolimni band qilgan o'ylarning oxiri ko'rinmaydi. Yo'q, tanamda charchoqni his etmayapman. Shunchaki, ko'kka tutashgan qoyalar oldida, aslida yo'qdek ekanimni

anglagandek edim. O'zi, umuman, siz ham shunga o'xshash hisslarni hech tuyasizmi? Ha, unda ruhimiz bitta daryoning o'zanida tutashib, to'yinganga o'xshaydi. Yo'qsa, birdaniga til topisharmidik. Aslo-da.

Ishqilib, kursant G'ofurjonov bilan shu bo'ldi-yu, gurungimiz qovushdi. U bilan hamma narsa haqida suhbat qurdik. Tarix sahifalarini birga titkiladik. Keyin u ilk bor qalbini o'rtaq suluv qizning ishq safari haqida so'zlab berdi. Harbiylik azaliy taqdiri bo'lganini, bu yo'ldagi sharafni mard yo'lovchi o'laroq, yelkasiga allaqachon olganini aytdi.

– Aslida kechagi kun ham bir tarix, – dedi u fikrlariga yakun yasas ekan.

Hosilbek har bir gapini avval o'ylab olar, so'ng shoshmay, xotirjam so'zlardi. O'zi o'rta bo'yli, yuzi biroz uzunroq, qoshlari qalin, ko'zlari katta-katta. Yelkasiga malla yo'lxaltada osilgan, chap qo'lida qurol – AK-74. Nimchasining old cho'ntagiga 4 dona qizil rangdagi o'qdon solingan. Oyoq va qo'l tirsaklarida himoya vositalari.

– Faqat ertangi kunga o'tib olish, ba'zida mushkuldek tuyuladi, – dedim siniq jilmayib. – Ahyon-ahyonda hayot to'xtagandek bo'lib ko'rinadi.

– Buning hammasi keraksiz o'ylarning ortidan qarab qolish natijasi bo'lsa kerak, – dedi u vazminlik bilan.

So'ng chap qoshini ko'tarib oldi.

– Ammo shunday qilinmasa, tiriklik qayerda qoladi? – dedim kulib.

U indamadi. Nazarimda, nimadir haqida o'ylab qolgandi. Ikkimiz ham ortiq so'z demay, to'g'riga – kaftdek ko'rinib turgan Chimyon qoyalariga ko'z tikib o'tirardik. Qolgan kursantlar ham nariroqda dam olyapti.

– Shaxmatga qiziqasizmi? – dedi Hosilbek o'rtaga cho'kkan sukunatni buzib.

Bilmasligimni aytdim.

– Harbiy xizmatchi, ayniqsa shaxmatni bilishi kerak, – dedi u norozi ohangda. – Bu orqali strategiyani o'rganasiz. Raqibni mot qilish san'ati shakllanadi. Onam bizga bu borada yaxshigina ta'lim bergan. Ha, aynan shaxmat donalarini munosib vaqtda va munosib katakka surishni o'rgatgan.

– Yaxshi ona shunday farzandni tarbiyalaydi.

– Otalar ham, – dedi u yutunib.

Keyin rangi birdan oqarib ketdi. Yuzidagi ifodalar ma'nosiz ko'rinish oldi. Qoshlari osildi, lablari quriy boshladi. Nigohida nadomat va qayg'u hukmron edi. Unga qarab, yuragim achisha boshladi. G'ofurjonovning hayotida nimadir kam edi. U ana shu kemtiklikni toshlardan, baland qoyalar bag'ridan izlayotgandek ko'rinib ketardi menga.

Buning sababini keyinroq bildim. Ha, o'zi aytib berdi. Hosilbekning bolaligi juda ham og'ir o'tgan ekan. Jamiki sitam ko'chasi yigit sho'rlikni yoqasiga tirmashgan. Eh, bunday insonlar juda irodali bo'ladi-da. Kurashuvchan va qalbida mangu yashirib, ulg'aytirgan katta kuch – maqsadini amalga oshirmaguncha harakatdan to'xtamaydi. Sinmaydi ham.

Zeriktirib qo'ymayapmanmi?

Keyinmi? Keyin Hosilbek otasini esladi.

– Eng kerakli vaqtda otam foniyl dunyoga rihlat qildi, – dedi u. Ovozi daf'atan xira tortdi. – Yo'q, bu taqdir. Ammo ko'ngil mehr taftini bir yoqlama oldi-da.

Ishoning, bisotimda so'z qolmagandi. Bilaman, yo'qlik haqiqat. Hamma o'sha yo'l – sirotidan o'tadi. Boshi va oxiri bor manzildamiz. Biroq tabiat xiyonat qilmasa bo'lgani.

– Qushlar ham yig'larmikan? – dedim past ovozda.

Nega bunday so'z deganimni ochig'i, o'zim ham bilmayman. Nazarimda shayton vasvas qila boshlagandek edi. Bo'lmasa, cho'kayotgan odamga, sen, albatta, suvda bo'kasan, deyilmidi? Biroq keyin bu savolimdan qattiq afsuslandim. Hatto o'zimni qarg'adim ham. Juda ham o'ng'aysiz ahvolga kelib qolgan edim. Qarasam, Hosilbek ham boshini egib olgan. U miq etmaydi. Qo'lidagi toshni mahkam ushlagancha, og'ir nafas olardi.

– Yig'lamasa, bu ularning shu ishga qodir emasligidan darak bermaydi, – dedi u ma'yus ohangda. Ammo hamon o'sha-o'sha ko'rinishda o'tirardi. – Sukut – g'am darvozasining qulfi. Qalbimiz mudom kalitlar uchun maskan bo'lgan.

Sharq tomondagi cho'qqidan bir uya kaklik quyi tomonga – shimolga qarab uchdi. Ular odati bo'yicha joyini tez-tez o'zgartirib yuradi. Bilmayman, nimaga unday?

Kursantlar o'quv rahbari tomonidan berilgan vazifalarni bajarishga kirishdi. Kamina yigitlarning barcha harakatlarini fotoapparat xotirasiga muhrlab o'tiribman. Kimdir qoyaga ko'tarildi, boshqa birovni tog' etagidagi maxsus toshli yo'lakda topshiriqlarni ado etdi. Hosilbek esa ikki soy o'rtasidan arqon tortib, evakuatsiya uchun sharoit hozirladi. Bularning hammasi odatiy mashq. Biroq kursantlar vazifalarga jon-jahdi bilan kirishib ketgandi.

Yo'lga chiqqanimizda osmon soqchilari – yulduzlar boshimiz uzra sochib yuborilgandi. Hozir ular yana ko'rinish bera boshladi.

– Yulduzlar ham vaqti-vaqti bilan dam oladi-ye, – dedim tizzalarimni tez-tez uqalab. – Hatto borliq shu masalaga ham mehr ko'rsatgan. Lekin biz-chi?! Ertalabdan buyon toshlarni tepib yuribmiz.



Hosilbek gaplarimni jim eshitib o'tirdi. Keyin birdan qovog'ini uydi. Hatto uning quloqlari ham azobdan titrab ketgandi.

– Aka, siz nima uchun yashayotganingizni o'zingiz bilasizmi? – dedi u ovozi do'rillatib. Qarashlari yanada o'tkirlashdi. – Aytar so'zlarimiz aslida niyatlarimizni oshkora qiladi, bilsangiz.

Tongda qichqirishni bilmagan, yo'q, o'zlashtirmagan xo'rozni hech ko'rganmisiz? Ha, u madorsiz qadam tashlaydi. Ayni vaqti kamina ana shu ko'rinishda edim. Aytayotganlarim faqat jar yoqasiga olib borayotgandi. Shundan so'ng Hosilbek men bilan qaytib gaplashmadi. U o'zini mendan yiroq tutdi. Yashash joyiga qadar bo'lgan masofani yakka o'zim, guruhning ortiga tushib olib bosib o'tdim. Ko'nglimda alam, tilimda nafrat qaynardi. Bu ruh ado bo'ldi. Toshlarining shafqatsizligiga uchrardim. Qushlarning nafratiga mahkum etildim.

Shunday, aka. Bu voqealar yelkaga ortilgan edi.

Mayli. Bularni-ku qo'yavering, o'sha kuni ishxonamga Hosilbekning kirib kelishi mingyillik qorong'i g'orda qolgan ko'nglimga shodlikni qaytardi. So'z demay, jim o'tirardim. Faqat leytenant Toshmatov bir nimalar, aniqrog'i kursant G'ofurjonov erishgan natijalar haqida to'lib-toshib gapirardi. So'ng Abror chiqib ketdi. Xonada Hosilbek ikkimiz yolg'iz qoldik. Nimagadir havo yetmayotgandek edi.

– O'shanda ikkimiz ham nohaq edik, – dedi u biroz sukutdan so'ng. Keyin: – Har qalbda bir Vatan bor.

– Bor bo'lsin, – dedim shoshib.

– Shunday, – dedi u xotirjam.

So'ng kursant men tomonga shaxdam qadam tashlab, yaqinlashdi-da, qo'l uzatdi. O'ng kaftimni tutqazdi. U qattiq qisib, o'zi tomonga biroz tortdi. Ko'zlari charaqlab turardi.

– Bo'lmasa, kaminaga ruxsat! – dedi Hosilbek past ovozda. – Hali bu yo'lda ko'p uchrashishimizga ishonaman. Har holda shuncha voqea bejiz bo'lmadi. Yo'qsa, taqdir qarshimizga asllarni chiqararmidi?

– Ehtimol.

U so'zimga boshini silkib, xonadan chiqib ketdi. Men turgan joyimdan qimirlamadim. Yo'q, G'ofurjonov hammasini samimiy aytganiga ishonaman. Faqat o'zimni bunday bo'la olmaganimdan xijolat tortib qolgandim.

Qarasam, avzoyingiz o'zgaryapti. Unda gurungimizni shu yerda to'xtataman, aka. Siz ham vaqtingizga rozi bo'ling.

Kapitan Shohrux SAIDOV,
“Vatanparvar”



8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni



AYOLGA EHTIROM — YUKSAK HURMAT IFODASI

Unda mudofaa vazirining o‘rinbosari polkovnik Alisher Norboyev, boshqarma boshliqlari, vazirlik tizimida xizmat qilayotgan ayol harbiy xizmatchilar hamda mehmon sifatida taklif etilgan taniqli san‘atkorlar ishtirok etdi.

Tadbir avvalida O‘zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining bayram munosabati bilan ayol-qizlarga yo‘llagan tabrigi o‘qib eshittirildi. So‘zga chiqqanlar barcha xotin-qizlarni bahor ayyomi va nafosat bayrami bilan samimiy tabriklar ekan, yurtimizda xotin-qizlarga ko‘rsatilayotgan e‘tibor va g‘amxo‘rlik, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlashga qaratilgan keng ko‘lamli ishlarni alohida ta‘kidladi. Mamlakatimizda keyingi yillarda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini

“Mamlakatimizda ayol zotiga bo‘lgan hurmat va e‘tibor azaldan yuksak qadriyat sifatida e‘zozlanadi. Shu sababli ham bahorning ilk nafasi bilan kirib keladigan 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni nafosat, mehr va minnatdorlik timsoli sifatida yurtimizda keng nishonlanadi. Bu sana nafaqat ayollarni ulug‘lash, balki ularning jamiyat taraqqiyoti va Vatan ravnaqi yo‘lidagi beqiyos hissasini e‘tirof etish imkonini beradi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi markaziy apparatida ham xotin-qizlarga bag‘ishlangan tantanali bayram tadbiri yuqori kayfiyat va samimiy ruhda o‘tkazildi.



Kichik serjant Ixtiyorjon MAMAJONOV



ta‘minlash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, ta‘lim olishi, kasb-hunar egallashi va jamiyat taraqqiyotida munosib ishtirok etishi uchun barcha sharoitlar yaratilayotganini qayd etdilar. Bu borada davlat siyosati darajasida amalga oshirilayotgan islohotlar ayollarning turli sohalarda, jumladan harbiy tizimda ham o‘z salohiyatini namoyon etishiga keng imkoniyat yaratayotgani aytib o‘tildi. Shuningdek, bugungi kunda milliy armiyamiz saflarida jasur, matonatli va Vatanga sadoqatli ayollarning xizmat qilayotgani faxr bilan tilga olindi. Ular yurt tinchligi va xavfsizligini ta‘minlash yo‘lida erkak harbiy xizmatchilar bilan yelkadosh bo‘lib, mardona xizmat qilayotgani ayniqsa tahsinga sazovor ekani, shu bois harbiy libosdagi ayollar nafaqat yuksak mas‘uliyat va

matonat sohibalari sifatida, balki o‘z mehnati, intilishi va fidoyiligi bilan Vatanga sadoqat timsoliga aylanayotgani e‘tirof etildi.

Tadbir davomida Mudofaa vazirligi tizimida samarali xizmat qilib kelayotgan harbiy xizmatchi hamda Qurolli Kuchlar ishchi-xizmatchi ayollarining xizmatdagi yutuqlari, mas‘uliyatli va sidqidildan olib borayotgan mehnati yuksak baholanib, munosib rag‘batlantirildi.

Bayram tadbiri davomida aytilgan samimiy tabriklar, ezgu tilaklar va minnatdorlik so‘zlari tadbirning aziz mehmoni bo‘lgan ayollarga ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishladi. Xotin-qizlarga ko‘rsatilayotgan bunday e‘tibor va ehtirom ularning xizmatga bo‘lgan ishtiyoq va mas‘uliyatini yanada oshirishi shubhasiz.



Tadbirning badiiy qismida Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambli xonandalari hamda taniqli san‘atkorlar ishtirokidagi bayramona konsert dasturi namoyish etildi. Jarangdor qo‘shiqlar, dilbar raqslar bayram ishtirokchilariga unutilmas taassurotlar bag‘ishladi. Ayniqsa, ona, ayol va Vatanni madh etuvchi qo‘shiqlar tadbirning ma‘naviy mazmunini boyitib, xotin-qizlarga bo‘lgan hurmat va ehtiromni yana bir bor namoyon etdi.

Shu tariqa Mudofaa vazirligi markaziy apparatida o‘tkazilgan bayram tadbiri ayollarga bo‘lgan yuksak ehtirom, mehr va e‘tiborning yorqin ifodasiga aylandi.

Podpolkovnik
Gulnora XODJAMURATOVA

Harbiy libosdagi malikalar

TO'MARIS IZDOSHLARI:



Esingizda bo'lsa, bolaligimizda turli qahramonlar haqidagi hikoyalar, multfilmlar qalbimizda alohida bir olam yaratardi. Ayniqsa, ayol sarkardalar, xususan To'marisning jasorati haqida eshitganlarimiz bizda ikki karra hayrat uyg'otardi. Chunki yurt himoyasi uchun jang qilgan Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk sarkardalar orasida ayol yo'lboshchilar ichidan chiqqan, ammo jasorat va matonatda ulardan qolishmaydigan qahramon siymosini tasavvur qilishning o'ziyoq bizga o'zgacha g'urur bag'ishlardi. O'sha davrlarda To'maris haqidagi har bir hikoya, har bir lavha bola qalbimizda Vatanga muhabbat, sadoqat kabi muqaddas tushunchalarning ilk chizgilarini chizgan edi.

Biz bolalikda Temurning salobati, Jaloliddinning jasurligi, Boburning matonati haqida eshitib ulg'ayganmiz. Lekin To'maris timsolida boshqacha bir qudratni his qilardik. U nafaqat sarkarda, balki ona, nafaqat yo'lboshchi, balki yurt taqdiri uchun farzandini fido qilgan ayol edi. Uning bosqinchi Kir II ga qarshi ko'rsatgan jasorati haqidagi hikoyalar go'yo bolalik xayolimizda adolat va jasoratning tirik ramziga aylangandi.

Shu bois To'maris haqidagi har bir lavha, har bir tasvir bizga oddiy tarix emas, balki iroda darsi bo'lgan. Uning qiyofasida biz ayollarning nafaqat mehribon va latofatli, balki temir irodali, qat'iyatli va jasur bo'la olishini ko'rganmiz. Bu esa bola ongimizda "Vatan" degan muqaddas tushunchani yanada chuqurroq his qilishimizga sabab bo'lgan.

Yillar o'tib, bolalikda qalbmida uyg'ongan o'sha hayrat va g'urur tuyg'ulari shunchaki xotira bo'lib qolmadi. Men uchun To'maris haqida eshitgan hikoyalarim ertak emas, balki iroda va matonat darsi bo'lgan. O'sha paytlardayoq ayol zotining shunday jasur, shunday qat'iyatli bo'la olishi meni hayratga solar, yuragimda ayollarga nisbatan chuqur hurmat uyg'otardi.

Bugun esa harbiy sohaga daxldor inson sifatida shuni tushunyapmanki,

kechagi afsonalar, jasoratlar bugun real hayotimizda davom etmoqda, desak, adashmagan bo'lamiz. Chunki bugun ayol harbiy xizmatchilar safida men To'maris ruhining tirik timsolini ko'raman. Ular qo'llarida qilich emas, bilim, mahorati va intizomi bilan Vatan tinchligini ta'minlamoqda.

Ana shunday mard va jasur ayol harbiy xizmatchilardan biri – Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi sport bo'limi yo'riqchisi kichik serjant Sharifa Davronova Vatan tinchligini ta'minlashdek muqaddas burchni sharaf bilan ado etib kelmoqda. Uning xizmat faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, harbiy xizmat va sportni uyg'unlashtirgan mustahkam iroda sohibasini ko'ramiz.

Sharifa yengil atletika yo'nalishida o'tkaziladigan musobaqalarda faol ishtirok etib, nafaqat jismoniy tayyorgarligi, balki matonati va intizomi bilan safdoshlariga o'rnak bo'lib kelmoqda.

U sport maydonlarida qo'lga kiritayotgan yutuqlari orqali nafaqat o'zining, balki xizmat qilayotgan joyi va yurtimiz sha'nini ham munosib himoya qilib kelmoqda.

Sharifa Davronovaning kun tartibi qat'iy reja asosida yo'lga qo'yilgan: erta tongdagi mashg'ulotlar, xizmat vazifalarini sidqidildan ado etish, so'ng yana musobaqalarga

tayyorgarlik. Bu jarayonda u harbiy intizom bilan sportchi matonatinini uyg'unlashtirib, ikki mas'uliyatni birdek olib bormoqda. Aynan shu jihat uning xarakterini toblab, mustahkam iroda sohibasiga aylantirgan.

Musobaqalar davomida u harbiy xizmatchining nafaqat jismonan baquvvat, balki sabr-toqatli va irodali shaxs bo'lish kerakligini o'zining amaliy harakatlari bilan isbotladi. U ko'p bora jahon arenalarda Vatanimiz bayrog'ini ko'kka ko'tarib, o'zbek ayol harbiy xizmatchilari To'marisdek mard va jasur ekanini yana bir bor amalda ko'rsatib berdi.

Buni qarangki, uning fidokorona xizmatlari va samarali mehnati e'tibordan chetda qolmadi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan mudofaa vazirining tegishli buyrug'iga asosan, kichik serjant Sharifa Davronova "To'maris" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Bu e'tirof, avvalo, uning yillar davomidagi mehnati, sport maydonlaridagi munosib ishtiroki va harbiy intizomga sadoqatining yuksak bahosi bo'ldi.

ILK OLTIN MEDAL

Sharifa Samarqand viloyatida tug'ilib, oilada tartib-intizom, mas'uliyat va Vatanga muhabbat ruhida tarbiya topdi. U bolalikdanoq harbiy bo'lishga qiziqar, televizorda harbiylar ishtirokidagi tantanali va jangovar chiqishlarni zavq bilan kuzatar edi. Ularning qat'iy intizomi va yurt tinchligi yo'lidagi fidoyiligi Sharifaning qalbidan kelajakda harbiy bo'lish istagini yanada mustahkamlardi.

Ana shunday orzular bilan maktabga qadam qo'ygan qahramonimiz, ko'p o'tmay gimnastika sport turi bilan shug'ullana boshladi. Ilk mashg'ulotlardan o'q u bu sport nafaqat jismoniy chiniqish, balki sabr-toqat, matonat va intizom maktabi ekanini anglab yetdi.

Mashg'ulotlar davomida u tanasini chiniqtirish bilan birga irodasini ham tobladi. Murabbiylari uning harakatlaridagi ishonch va qat'iyatni alohida ta'kidlar, musobaqalardagi ishtiroki bilan esa u katta tajriba to'plab borardi.



Shunday qilib, Sharifa 15 yoshida Kolumbiyaning Kali shahrida yoshlar o'rtasida bo'lib o'tadigan jahon chempionatiga yo'llanmani qo'lga kiritadi. Chempionatda ishtirok etishi aniq bo'lgandan so'ng u o'z ustida tinmay ishlay boshladi. Ustozlarining ishonchini oqlash va Vatan bayrog'ini ko'klarga ko'tarish uchun mashg'ulotlarda toblanardi.

Uning mehnatlari zoye ketmadi. 2022-yilda Kolumbiyaning Kale shahrida yoshlar o'rtasida "World Athletics U20 Championships"da u atigi 15 yosh bo'lishiga qaramasdan, 20 yoshlilar o'rtasida ilk oltin medalni qo'lga kiritadi.

Bu g'alaba nafaqat uning shaxsiy yutug'i, balki o'zbek sporti tarixida yorqin sahifa bo'ldi. Yoshi katta va tajribali raqiblar bilan tengma-teng kurashib, ularni ortda qoldirish uchun ulkan jasorat va mustahkam iroda talab etiladi. Sharifa esa musobaqa maydonida o'zini yo'qotmadi, har bir chiqishida ishonch va mahorat namoyon qilib, g'oliblikni qo'lga kiritdi.

G'ALABA YO'LI

Sharifaning ushbu g'alabasi uning o'ziga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlab, yangi marralar sari dadil qadam tashlashga kuch bag'ishladi. Bu yutuq unga mehnat va qat'iyat har qanday orzuni ro'yobga chiqarish mumkinligini yana bir bor isbotladi.

Oradan ko'p o'tmay, Sharifa Turkiyaning Konya shahrida bo'lib o'tadigan Islom birdamligi o'yinlarida ishtirok etish uchun yo'l oladi. Musobaqa oldidan u mashg'ulotlarni yanada kuchaytirib, har bir chiqishini puxta rejalashtiradi.



TILDA EMAS, AMALDA

Ushbu musobaqada Sharifa har bir harakatini ishonch bilan bajarib, o'z mahorat va tayyorgarligini namoyon qildi va raqiblarni ortda qoldirib, yana bir bor chempionlik shohsupasiga ko'tariladi. Ushbu g'alaba uni yanada ruhlantirib, yo'nalishi bo'yicha yangi va yuksak marralarni zabt etishga undadi. Endi u har bir mashg'ulotga oddiy tayyorgarlik emas, balki katta musobaqalarga olib boradigan muhim bosqich sifatida qaraydigan bo'ldi.

Shu yilning oktabr oyida qahramonimiz Quvayt davlatida bo'lib o'tadigan o'smirlar o'rtasida Osiyo chempionatiga yo'l oladi. Buni qarangki, Sharifa u yerda ham



o'zining bor mahoratini namoyon etib, ikkita oltin medalni qo'lga kiritadi va shu bilan musobaqaning eng yorqin ishtirokchilaridan biriga aylanadi.

Birinci oltin medal – uch hatlab sakrash bo'yicha, ikkinchisi esa uzunlikka sakrash yo'nalishida qo'lga kiritildi. Har ikki bellashuvda ham u raqibalaridan yaqqol ustunlik ko'rsatadi. Ayniqsa, hal qiluvchi sakrashlarda texnik mahorat barcha mutaxassislar e'tiborini tortdi.

Sharifa yuqoridagi yutuqlar bilan cheklanib qolmay, 2023-yilning boshida Qozog'istonning Ostona shahrida kattalar o'rtasida yopiq inshootda bo'lib o'tgan Osiyo chempionatida 13:98 natija bilan oltin medalni qo'lga kiritadi.

Oradan ko'p o'tmay, qahramonimiz Xitoyning Xanchjou shahrida kattalar o'rtasida bo'lib o'tgan Osiyo chempionatida ishtirok etadi. Jarohati borligiga qaramasdan, yurt bayrog'ini baland ko'tarishni o'z oldiga maqsad qilgan Sharifa 14:09 natija bilan ushbu musobaqada ham oltin medalni qo'lga kiritdi. Sharifaning qisqa vaqt ichida kattalar sportida ham muvaffaqiyat qozonishi uning tasodifiy chempion emasligini, balki tinimsiz mehnat va matonat egasi ekanini yana bir bor isbotladi.

YENGIL ATLETIKA TARIXIDAGI ILK OLTIN MEDAL

Yoshligidan harbiy bo'lishni orzu qilgan Sharifaning istagi biroz o'zgardi. Sportning gimnastika yo'nalishida erishayotgan yutuqlari uning harbiy sportchi bo'lishiga turtki bo'ldi. Ota-onasi ham qizining istaklarini inobatga olgan holda uning xohishini qo'llab-quvvatladi. Shundan so'ng jismoniy tayyorgarlik bilan birga harbiy bilimlarni ham o'zlashtira boshladi. Mudofaa vazirligiga hujjat topshirdi. Qahramonimiz belgilangan sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib, kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga qabul qilindi.

Kontrakt asosida harbiy xizmatchilar safiga qo'shilgan Sharifa uchun yangi hayot boshlandi. Endi u nafaqat sport zalida, balki saf maydonida ham o'zini sinab ko'rar, intizom va mas'uliyatni har qadamda his etardi.

Gimnastikada orttirgan tajribasi unga harbiy sinovlarda katta ustunlik berdi. U tezda jamoa orasida faol, intizomli va tirishqoq harbiy xizmatchiga aylandi. Sportdagi g'alabalari endi harbiy musobaqalarda ham davom eta boshladi.

2024-yili Peru davlatining Lima shahrida U20 yosh

toifasida yengil atletika bo'yicha jahon chempionati o'tkazildi. Unda serjant Sharifa Davronova uch hatlab sakrash dasturida g'alaba qozonib, dunyo birinchiliklaridagi ikkinchi oltin medalga sazovor bo'ldi.

2025-yilning iyul oyida esa Germaniyaning Boxing shahrida



bo'lib o'tgan Butunjahon yozgi universiadasida Sharifa gimnastika sport turi bo'yicha yurtimiz sharafiga munosib himoya qildi. Mazkur nufuzli musobaqada u yuksak mahorat, puxta tayyorgarlik va mustahkam iroda namoyish etib, O'zbekiston yengil atletikasi tarixida so'nggi 38 yil davomida qo'lga kiritilmagan ilk oltin medal sohibasiga aylandi. Bu g'alaba nafaqat uning shaxsiy yutug'i, balki milliy sportimiz uchun ham ulkan tarixiy voqea bo'ldi. Chunki Butunjahon yozgi universiadasida kabi yirik maydonda g'alaba qozonish katta mehnat, matonat va yuksak professionalizm talab etadi. Sharifa o'zining bu galgi g'alabasi bilan qat'iyat va mehnat bor joyda muvaffaqiyat albatta bo'lishini yana bir bor isbotladi. Shu ma'noda u eli va yurti ozodligi, tinchligi yo'lida jonfido qilgan afsonaviy qahramon To'marisga munosib izdosh ekanini amalda isbotladi. Bu bilan qahramonimiz to'xtab qolmadi. Joriy yilning fevral oyida u Xitoy davlatining Tyanzin shahrida yengil atletika bo'yicha yopiq inshootdagi Osiyo chempionatida ishtirok etdi. U musobaqada yurtimiz bayrog'ini munosib himoya qilib, oltin medalni qo'lga kiritdi.

Sharifa ushbu g'alabalardan so'ng bir lahzada ham to'xtab qolmadi. Uning uchun g'alaba so'nggi manzil emas, balki yangi marralar sari boshlanadigan navbatdagi qadamdir.

Buni qarangki, Sharifaning tinimsiz mehnati va yuksak natijalari e'tibordan chetda qolmadi. Qahramonimiz Mudofaa vazirligi tomonidan "To'maris" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Bu mukofot unga shunchaki sportdagi yutuqlari uchun emas, balki harbiy xizmatchi sifatidagi namunaviy intizomi, fidoyiligi va Vatanga sadoqati uchun berildi. "To'maris" nomi o'z-o'zidan jasorat, matonat va el-yurt himoyasi yo'lidagi fidokorlik ramzini anglatadi. Ana shu nom bilan atalgan nishonni taqish katta ishonch va yuksak mas'uliyat demakdir. Zero To'marisga munosib izdosh bo'lish faqat tarixni eslash emas, balki bugungi kunda ham Vatan himoyasiga tayyor turish, yurt sha'nini har qanday maydonda munosib himoya qilishdir. Sharifa ana shunday harbiy sportchi sifatida zamonaviy o'zbek ayolining jasorati va sadoqati timsoliga aylanmoqda.

**Leytenant
Mansurbek JABBOROV,
"Vatanparvar"**



Ehtirom



DO'ST

Hamkasbim Zulfiya Yunusova. U o'zbek matbuotida harbiy jurnalistika sohasida qalam tebratgan birinchi ayol. Tom ma'noda go'zal bir Inson.



Yonma-yon ishlayotganimizga ham yigirma yildan oshdi. Ko'p hollarda fikrimiz bir joydan chiqmaydi, bahslashib qolamiz... Ayol-qizlarning jamiyatdagi o'rni, xoriydagi vatandoshlarimiz, xoriydagi ayollar, vatansevar inson tarbiyasi, kitoblar, hayratimizga sabab bo'lgan yurt himoyachilari, Vatan himoyasi yo'lida halok bo'lgan aziz shahidlarimizning oilalari... Ehhe, aytsam, ado bo'lmaydi, bir-birimizga aytar gapimiz ko'p, aytmaydigan, aytolmaydiganlarimiz ham bisyor.

Qaysidir serialda jurnalist ayol obrazini ko'rib, "Tavba, jurnalist ham shunchalik bo'shashgan bo'ladimi?" deb norozi bo'lgan. O'zi esa... ko'zyoshlarini ichiga yutib, xayollarga g'arq bo'lib o'tirganiga necha bor guvoh bo'lganman. Noroziligi, isyoni jimlik bo'lgan bir ayol. U mening hayot muallimim, do'stim, opam!

"Suhbatdoshiga ovozi salgina pasaytirib aytilgan gap ham omonat hisoblanadi. Omonatni saqlash kerak".

"Qarzni ziyodasi bilan qaytarish kerak. Chunki u muhtoj vaqtingizda hojatingizni chiqardi".

"Hayo ham iymondandir".

"Anglagan odamga lafzi halollik or-nomus kabi".

"Ayolning bolasi bo'lishi kerak!"

"Bolalarimga Vatan, millat dardi bilan yashash kerakligini ta'kidlashdan charchamadim".

"Qizlar albatta o'qishi kerak!"

"Farzandlarni o'g'il-qizga ajratishni yoqtirmayman. O'g'il kerak, albatta. Ammo qizsiz uy, nursiz uy".

Yurtimiz bo'ylab ko'p ijodiy safarlarda birga bo'ldik. Iqlim sharoiti og'ir hududlarda bo'lganimizda, "Eshiklari tagiga daraxt ekishsa bo'lasmikan, a?" deb ajablanardi. O'zi O'zbekiston tumanining Rajabgardi degan bog'-bo'stonli qishlog'ida tug'ilib o'sganidan bo'lsa kerak, hamma yerni shunday ko'rgisi

kelardi. "Bog'lar ko'p bizning Qo'qon tomonlarda, – deb ko'p takrorlaydi. – Bog' yaratish ham oson emas. Qishlog'imiz dasht yerda joylashgan, bitta daraxt ko'kartirish uchun tuproq toshdan ajratib olinadi... Qiyin. Ammo odamlar qiyin deb qo'l qovushtirib o'tirmaydi. Harakat qiladi, tinmaydi. Inson yashab turgan bir parcha yerini obod qilib, gullatib qo'yishi kerak. Insonligimiz ham shunda-da..."

Opaning odamgarchiligi... Aytsam, tugamaydi. O'zi muruvvat qilgani yetmaganidek, muruvvatpeshalikni farzandlarining ham hayot tarziga aylantirdi. Ikki o'g'li yurt xizmatida, hademay ular safiga qizi ham qo'shiladi. Turmush o'rtog'i Haydarali Nishonov Toshkent shahri ichki ishlar bosh boshqarmasidan iste'foga chiqqan edi. Taqdir ekan, og'ir xastalikdan vafot etdi.

Zulfiya Yunusovaning o'ziga xos ijodi bor. Vatanparvarlik mavzusidagi eng yangroq, otashin she'rlari O'zMTRK

xazinasidan joy olgan. Bir qator kitoblari nashr qilingan. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining a'zosi.

Yozuvchining "Yovqurlar" qissasi qanday yaratilganiga guvohman. Bu qissa asosida yagona ssenariyni ham yozgan edi. "Hayot" filmi ana shu ssenariy asosida suratga olingan.

Qissa qanday dunyoga keldi? Opa 1999-yildan to shu kunga qadar milliy armiyamizda kechgan, kechayotgan o'zgarishlar ichida yashayapti, ishlayapti. 2000-yili janubiy sarhadlarimizda kechgan jangovar harakatlarda qahramonona kurashgan yovqur o'g'lonlar, Vatan yo'lida aziz jonini tikkan shahidlar haqida yozgan maqolalari turli to'plamlarda nashr qilindi.

"Yovqurlar" qissasi uchun juda ko'p insonlar bilan uchrashdi, ularning o'zlari va safdoshlari haqidagi xotiralarini tingladi.

Ayol ijodkorlarga oson emas. Ro'zg'or yumushlari, farzandlar tashvishi... Zulfiya opaning yonida tog'dek suyanchig'i bor edi. Turmush o'rtog'i ichki ishlar podpolkovnigi Haydar

Nishonovni "Vatanparvar" jamoasi ham yaxshi tanirdi. Kibr-havodan yiroq, mard, tanti, yo'l harakati xavfsizligi ishiga umrining salmoqli qismini bag'ishlagan bu oliyjanob inson nihoyatda o'qimishli, bilimdon bo'lgani bois rafiqasining jurnalistik faoliyatiga ham hurmat bilan qarar edi. Kamdan kam ko'riladigan holat: unga 55 yoshdan keyin ham xizmatini davom ettirish taklifi berildi. Biroq muttasil yuqori qon bosimi o'z ishini qilgan, sog'lig'ida muammolar paydo bo'la boshladi. Va u yotib qoldi. Ayol uchun tog'dek suyanchig'ining bu ahvolda yotib qolishi juda og'ir. Ana shunday qiyin damlarda ko'zyoshlarini ichiga yutib, "Yovqurlar"ni yozdi.

Davlatimizning yuksak mukofoti – "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni bayrami munosabati bilan milliy armiyamiz bosib o'tgan sharaflari yo'li aks etgan ssenariylar tanlovida Zulfiya Yunusovaning "Yovqurlar" (keyinroq film ishlash jarayonida "Hayot" deb o'zgartirilgan) ssenariysi g'olib topildi.

Yillar yildirim. Opa qutlug' yoshga yetdi. Yoshini atay ko'rsatmadim. Ko'z tegadi.

Opaning hayotiy qarashlari, yashash tarziga boqib, beixtiyor hazrat Alisher Navoiyning quyidagi misralari yodimga tushadi:

*Yuz tuman nopok erdin yaxshiroq
Pok xotinlar oyog'ining izi.*

Qadrli Zulfiya opa, "Vatanparvar" jamoamizning vijdoni, siyrat-u suvrati bahor bilan uyg'unlashib ketgan aziz Inson, sog' bo'ling, bor bo'ling, ijoddan tolman!

Inobat IBROHIMOVA,
"Vatanparvar"



Ayol madhi

SEN TOG'LARDAN

ULUG'SAN, AYOL!



AYOL MADHI

Ko'hna olam sinoatin sarvari –
Ayoldir u, ayoldir.
Mehr otlig' pok tuyg'ular gavhari –
Ayoldir u, ayoldir.

Go'zalligi jannat bog'in yaratgan,
Farishtadir, farishta.
Muhabbati ishq qo'shig'in taratgan
Jon rishta u, jon rishta.

Qanoatin qoshida bosh egadir,
Alp cho'qqilar, ummonlar.
U sadoqat saroyiga bekadir,
Bunda g'ulom sultonlar.

Qaddi nozik, qalbi nozik xilqat u,
Nafisdir gul bargidek.
Ming dovullar egolmagan qudrat u,
Sabri ila qaddi tik.

To'marisning tizgini bor qo'lida,
Suvvoralik merosdir.
Sirli qudrat yashar yurak qo'rida,
Fidolik unga xosdir.

Nodirayi davrondir u jafokash,
Yurt so'ragan shoira.
Shodliklar-u g'amlarga umri tutash,
Qasdlardan ko'ksi tiyra.

Bibixonim bo'lib kelgan dunyoga,
Sohibqiron zavjasi.
Temurbekka qanot bo'lgan har lahza
Maslahat-u mujdasi.

Bir so'z ila bayon qilsak aslini,
U – hayot ostonasi.
Fidolikdan ulug'likka erishgan,
U – millatning onasi.

AYOL BO'LIB KELDINGIZ...

Ayol bo'lib keldingiz bu dunyoga,
Sinovlar bor yelkangizda tog' qadar.
Volidasiz har donish, avliyoga,
Ona degan ulug' sha'nga muyassar.

Millat borki buyuklikka erishgan,
Ayollarin aziz bilgan eldir u.
Onalarning poyida unar gulshan,
Duosi-la yurtga bo'ylamas qayg'u.

Asrlardan kelgan ulug' haqiqat:
Ajdodimiz buyuk ona To'maris.
Undagi shaxt yuragingizga payvand,
Yovqurlarga siz ham munosib voris.

Qaddingizga yarashar harbiy libos,
Ko'ksingizda Vatan ishq mujassam.
Sadoqat-u ahdingiz o'zlikka xos,
Ne chorlov bor barchangiz sobitqadam.

Gar keraksiz yurtning tinchlik koriga,
Er yigitlar safidasiz shu lahza,
Aylanasiz posbonlarning noriga,
Zafarlarda bo'lasiz kamarbasta.

Ayol bo'lib keldingiz bu dunyoga,
O'rningiz bor har jabhada, har onda.
Bir haqiqat ayonki yer-samoga,
Ayollarsiz mehr so'nar jahonda.

Ayol bo'lib keldingiz...

HARBIY LIBOS MALIKALARIGA

Yovqurlarga safdosh mardonalarsiz,
To'maris izdoshi – afsonalarsiz,
Shaxt-u shijoatda yagonalarsiz,
Harbiy libosdagi oy malikalar.

Onalik baxtidan masrur qalbingiz,
Vatan ishonchidan mag'rur qaddingiz,
Tinchlikni asramoq erur ahdingiz,
Harbiy libosdagi oy malikalar.

Sizga havas qilar ne-ne zebolar,
Madhingizga ilhaq nazm-u navolar,
Poyingizni o'par sarin-sabolar,
Harbiy libosdagi oy malikalar.

Ayollik sha'ningiz, qadringiz yuksak,
Matonatdan bunyod qasringiz yuksak,
Mag'rur suvvorasiz – naslingiz yuksak,
Harbiy libosdagi oy malikalar.

Vatan posbonisiz, millat dilbandi,
Erksevar ajdodlar kutgan farzandi,
Oila chirog'i, farzandlar baxti,
Harbiy libosdagi oy malikalar.

Yuzda nim tabassum, mag'rur tutib qad,
Vatan chorloviga shaydorsiz har vaqt,
Elning duosi-la quching saodat,
Harbiy libosdagi oy malikalar.

FIDO BO'LIB SEVSINLAR

Guldan nozik xilqat-u, lek
tog'dek zahmat ilkida,
Ulug'lig-u jafokashlik
joy talashlar mulkida,
Ne daholar, ne rasolar
g'ulom bo'lmish ishqida,
Gar sevsalar majnuni – ishq
savdo bo'lib sevsinlar.

Usti sokin daryodir, lek
bag'rida yo'q halovat.
Ne kechmishlar ko'z tutmasin
aylar sabr-u qanoat,
Etagining barin o'par
er yigitman degan mard,
Gar sevsalar shunchakimas,
fido bo'lib sevsinlar.

Tilsim dunyo sinoatin
muhrlagan ayol u,
Uchqur aqli-daholarni
sehrlagan xayol u,
Mudom ahli-donishlarning
qo'li yetmas savol u,
Gar sevsalar ishqida chin
vafo bo'lib sevsinlar.

Yigitlarning or-nomusi
ul poyiga tikilar,
Yelkasi yer ko'rmas norlar
jim-jimgina yukinar,
U e'zozda bo'lgan yurtida
qodir avlodlar unar,
Gar sevsalar sadoqatda
tanho bo'lib sevsinlar.

Jiyda gulin iforiga
chayilgan malak – ayol,
Ne ko'ngillar yetolmagan
umrlilik tilak – ayol,
Millat nomin asraguvchi
yorug' kelajak – ayol,
Gar sevsalar bir umrlilik
shaydo bo'lib sevsinlar.

Momo Havo ajdodi u,
mehr ila qaddi tik,
Asrlarki sha'nin kuylar
ne-ne ash'or-u bitik,
Usiz daho umrlar ham
nursiz-u nochor, kemtik,
Gar sevsalar ulug' Odam
Ato bo'lib sevsinlar –
Ne qismat-u ne zahmatga
rizo bo'lib sevsinlar.

AYOL

Sen yaralding dunyo bag'riga,
Shodlik to'ldi, muhabbat to'ldi,
Sen yaralding mehr qasriga,
Har qadaming poydevor bo'ldi,
Garchi qadding nozig-u hilol,
Sen tog'lardan ulug'san, Ayol!

Alp o'g'lonlar berding dunyoga,
Zafarlarda buyuk hissang bor.
Sen qo'l ochsang ezgu duoga,
Har insonga omad bo'lur yor,

Farzandlari millatga poydor,
Bashariyat kamoli, Ayol!

Kulgisidan yorishar olam,
Qayg'usidan titraydi zamin,
Muhabbati dillarga malham,
Hijroni tosh yormog'i tayin,
Shirin azob, eng shirin xayol,
Go'zal dunyo sayqali, Ayol!

Onalikning buyuk zahmati,
In'om etdi manguilik qadr,
Bo'yin egmas ming norlar mardi,
Poyingga bosh egur bir umr,
Buyukliging bilmasin zavol,
Sen hammadan buyuksan, Ayol!

Ming jiloda kuylar vasfing,
Ta'rifingni ming qirras bor,
Bilolmaslar ne erur asling,
Asrlarki, bitilar ash'or,
Sen asrorsan, sen sirli savol,
Sinoatli xilqatsan, Ayol!

Sen bo'lmasang, hayot nurlanmas,
Mehr qasri topar zalolat,
Jafokashlik, munislik abas,
Hayotingga to'ldirur hikmat,
Sen onasan, sen yorsan bedor,
Millat sha'nin tutguvchi, Ayol!

E'TIROF

Ayol gar istasa, har ishga qodir,
Garchi olovlardan o'tsin yo'llari.
Ming bir sinovlarga bardoshi bordir,
Dunyoni tebratar nozik qo'llari.

U sizga yelkadosh, hamrohdir azal,
Qalbingizda bo'lmoq istaydi abas.
Uning yo'llariga sochmang siym-u zar,
Otash mehringizni to'shasangiz bas.

Ayol gar istasa, har ishga qodir,
Unga g'ov bo'lolmas tog'lar, to'fonlar.
Onalik mehriga dunyolar loldir,
Qoshida bosh egar shohlar, sultonlar.

Sabr-u saboti bor ummondek teran,
Biroq qalbi nozik gul yaprog'idek.
Umrini baxshida etar chin dildan,
Sizni hayotiga gar saylasa bek.

Ayol gar istasa, har ishga qodir,
Qaddini bukmagay cho'ng dovonlarda.
Yurt erki yo'lida qatorda nordir,
Shaxt-la ot suradi keng maydonlarda.
Ayol gar istasa...

Zulfiya YUNUSOVA,
"Vatanparvar"

Balli, ayollar!



MILLIYLIK VA MAHORAT UYG'UNLIGI

Yurt osmoni tinch bo'lsa, oilalar baxtli bo'ladi. Oila baxtli bo'lsa, jamiyat mustahkamlanadi. Mustahkam jamiyat esa Vatan tayanchidir. Ana shu ezgu g'oyani qalblarga chuqur singdirish, harbiy xizmatchilar oilalarida ma'naviy muhitni yuksaltirish, ayollarning ijodiy salohiyati va milliy qadriyatlarga sadoqatini namoyon etish maqsadida Mudofaa vazirligi tizimida ham samarali ishlar olib borilmoqda.

Har yili an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Balli, ayollar!" ko'rik-tanlovi bugunga kelib mazkur ezgu sa'y-harakatlarning shunchaki davomi emas, balki ularning mazmungan boyigan, ma'an yuksalgan ifodasiga aylandi. U har gal nafaqat bellashuv, balki oila, Vatan va ayol sharafini ulug'lovchi ma'naviy bayram sifatida qalblarga kirib bormoqda.

Quvonarlisi, joriy yilda ham Mudofaa vazirligi qo'shinlarida bosqichma-bosqich o'tkazilgan tanlovning yakuniy bosqichi ana shu yuksak an'analarga sodiq qolgan holda yanada ko'tarinki ruh, puxta tayyorgarlik va yuqori saviyada tashkil etildi. Bellashuvlarni Oila va gender ilmiy tadqiqot instituti bo'lim boshlig'i, pedagogika fanlari nomzodi, professor Farida Abdurahimova, Respublika Harbiy prokurorining katta yordamchisi adliya podpolkovnigi Gulchehra Tursunova, O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi Toshkent shahri kengashi raisi o'rinbosari Dilduza Axunova, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi bosh mutaxassisi Maxpirat Zikirova, Qurolli Kuchlar Bosh shtabi boshlig'ining kotibiyati bosh mutaxassisi Mohigul To'ychiyeva baholab bordi. Ko'rik-tanlovning odilona o'tkazilishi Mudofaa vazirligi xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oilalari bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassisi Zulfiya Mansurova tomonidan nazorat qilindi.

Ta'kidlash joiz, tanlovda ishtirokchilarning sahnada namoyish etgan har bir chiqishida nafaqat mahorat, balki milliy g'urur, hayo va iboning latofati, o'zbek ayoliga xos matonat va zakovat yaqqol sezilib turdi. Tadbirda milliy qadriyatlar va liboslar targ'ibotiga alohida e'tibor qaratilgani ayniqsa ahamiyatli bo'ldi. Bu orqali yosh avlod qalbida milliylikka hurmat, ajdodlar merosiga sadoqat va o'zlikni anglash tuyg'ulari yanada mustahkamlandi. Shu jihati bilan ham tadbir nafaqat tanlov, balki ma'naviy-ma'rifiy bayramga aylandi. Unda harbiy xizmatchilarning rafiqalari, qizlari o'zlarining bilim va iste'dodini, milliy an'analarga hurmatini, oilaga sadoqatini, jamiyat oldidagi mas'uliyatini o'ziga xos tarzda namoyon etdiki, bu haqda quyida alohida to'xtalishni joiz deb bildik.



Kichik serjant Ixtiyorjon MAMAJONOV



BIZ BAXTIYOR AYOLLARMIZ

Tanlovning ilk sharti shunday deb nomlandi. Mazkur shartda ishtirokchilar o'zlarini, oilalarini va jamoat ishlaridagi faolligini tanishtirar ekan, bu jarayonda go'zal she'rlar va maqol-u matallardan o'rinli foydalanib, notiqlik san'atini yuksak ko'rinishda namoyon etdi. Ular o'z hududiga xos milliy libosda sahnaga chiqib, o'zbek ayoliga xos latofat va kamtarinlikni yorqin ifoda etgani hakamlar hay'atining ham e'tirofiga sazovor bo'ldi. Shu tariqa ilk shartning o'ziyoq ishtirokchilarning, o'zbek ayolining zakovati va ijodiy mahoratini yorqin ochib bera oldi.

Muhimi, mazkur shartda ayollarning ijro mahorati alohida e'tirofga sazovor bo'ldi. Chunki ular sahnada o'zini erkin tutishi, nutq madaniyati, obraz yaratish qobiliyati bilan professional aktrisalardan sira ham qolishmadi.

QADIMIY MEROS -
TIRIK AN'ANA

Milliy libos shunchaki kiyim emas, balki xalq ruhiyati, tarix va madaniyat mujassamligidir. Tanlovning "Qadimgi milliy liboslar - madaniy merosimiz" sharti shu jihati bilan ham alohida ahamiyat kasb etdi. Unda ayol-qizlarimiz nafaqat milliy kiyim-kechaklarni namoyish etdi, balki ularning tarixi, ramziy ma'nosi va hududiy xususiyatlari haqida ham batafsil ma'lumot berdi. Bu esa tadbirning oddiy tanlov emas, balki haqiqiy ma'rifat maktabiga aylanganidan dalolat beradi.

Ushbu shartda ayollar liboslarni shunchaki namoyish etmadi, balki tomoshabinlarga uning ruhini ham his ettira oldi. Ya'ni ular sahnadagi yurish-turish, latofatli harakatlari, iboli qiyofasi bilan o'zida aks ettirgan milliy obrazni mukammal ochib berdi. Shu tariqa mazkur shart tanlovning eng mazmundor va ma'naviy jihatdan ta'sirchan qismlaridan biriga aylandi.

TARBIYA VA MA'RIFAT UYG'UNLIGI

Darts shartida jismoniy epchillik bilan birga diqqat va iroda ham sinovdan o'tdi. Ayollar bu vazifani ishonch bilan bajarib, harbiy oilalarda tarbiyaviy, ruhiy barqarorlik ham yuqori ekanini ko'rsatdi.

Darvoqe, 30 dona rangli pufakdan guldasta yasash sharti ham qiziqarli bo'ldi. Ushbu shart ijodkorlik, sabr va estetik didni talab qildi. Qisqa vaqt ichida yaratilgan guldastalar milliy ranglar uyg'unligi bilan ajralib turdi.

BAHRIBAYT VA PAZANDA BEKAJONLAR

Tanlovning eng ta'sirchan shartlaridan yana biri Bahribayt sharti bo'ldi. Ishtirokchilar milliy va zamonaviy qo'shiqlardan parchalar, she'rlar aytib, o'zlarining san'atga bo'lgan mehrini namoyon etdi. Sahnadagi harakat, ovoz tembri, sahnaviy madaniyat - barchasi yuqori saviyada edi.

"Pazanda bekajonlar" shartida esa ishtirokchilardan milliy taomimiz - palov uchun zarur bo'lgan asosiy mahsulot sabzini besh daqiqa ichida to'g'rash talab etildi. Bu shart bir qarashda oddiydek tuyulsa-da, aslida u chaqqonlik, mahorat va pazandalik borasidagi tajribani sinovdan o'tkazdi. Shu tariqa "Pazanda bekajonlar" sharti o'zbek ayolining xonadondagi mohir beka, milliy taomlarimizning ustasi ekanini yana bir bor isbotladi.

AYOL - OILA TAYANCHI

Tanlov yakunida 9 ta nominatsiya bo'yicha g'olib va sovrindorlar e'lon qilindi. Ular qimmatbaho sovg'alar va diplom bilan taqdirlandi. Biroq eng katta yutuq sahnada namoyon bo'lgan milliy g'urur va qadriyat, oilaviy birlik va ayollarning yuksak ijro mahorati bo'ldi.

Haqiqatan ham, harbiy xizmatchilar ortida uni qo'llab-quvvatlab turuvchi, ma'naviy tayanch bo'la oladigan ayoli, farzandlari, oilasi bor. Uning sabri, mehri va zakovati Vatan himoyasining ko'rinmas, ammo mustahkam ustunidir. "Balli, ayollar!" ko'rik-tanlovi shuni isbotladiki, o'zbek ayoli nafaqat xonadon charog'boni, farzand tarbiyachisi, balki ma'naviyat va milliy qadriyatlar targ'ibotchisi, jamiyat taraqqiyotining faol ishtirokchisidir. Ana shunday fidoyi, iste'dodli va milliy ruhga sodiq ayollar bor ekan, yurtimizda tinchlik va barqarorlik mustahkam bo'lib qolaveradi.

Podpolkovnik
Gulnora XODJAMURATOVA,
"Vatanparvar"



Bahor xotiralari

KO'KLAM ONAMNI ESLATAR

Onamning olamdan o'tganiga 23 yil bo'ldi. "Yerning bag'ri sovuq, yongan yurakni sovitadi", deb ko'p takrorlardi. Ma'nisi shuki, tuproq ostida qo'nim topganingdan keyin ortingdan ming faryod qilib yonib-kuysalar-da, bir kun kelib, soviydilar, unutilishga mahkumsan, deganidir. Yerning bag'ri sovuqligi rost ekan, ammo yer ustida sen sevgan, seni sevganlar bor ekan, inson unutilmaydi. O'lim haq, ko'nasan, biroq sevimli insonni qalbingdan o'chirib tashlolmaysan. Ayniqsa, u onang bo'lsa!

Men uni ko'p eslayman. Ba'zan qattiq sog'inaman, ko'zdan panada yomg'irday to'kilib olaman. Ko'klamda har bir g'iyoh, yalpizlar, kurtaklar, ayniqsa tozalangan ariqlar uni yodimga soladi. Nafaqat ko'klam, hatto boshqalarning onalari ham onamni yodimga soladi. Ularni tinglab... Onalar naqadar bir-biriga o'xshaydi, a'?

MENING ENAM HAQIQIY OLTIN!

Pedagog Zebo SARIYEVA hikoyasi.

– Ota qizi bo'lganman, hamma narsani otam bilan maslahatlashar edik. Enam... uni ancha vaqt sezmaganiman (*bundan vijdonim qiynaladi*) hamisha ish bilan band edi, hatto hozir ham. U haqda aytadigan gaplarim shu qadar ko'pki.

...Yosh ekanmiz. Ovsinim bilan gap talashib, bir-birimiz bilan gaplashmay qo'ydik. Qaynonam rahmatli so'zlari keskir ayol edi. O'g'illariga: "Ikkovini ham ota-onasinikiga tashlab kelinglar, bizning xonadonda bir-biri bilan gaplashmaydigan odamlar yashamaydi", dedi.

Turmush o'rtog'im enamga vaziyatni tushuntiriyapti: "...urishib qoldi". Enam boshqa gaplarni eshitdimi yo yo'q bilmayman, biroq "urishib qoldi" deganini eshitib, "Voy o'lay, urishdimi?.." deb qip-qizarib ketdi, qo'li bilan yuzini yopib, yerga qarab uyalgani hali hamon ko'z o'ngimda. Chunki u **UMRIDA BIROV BILAN URUSHMAGAN AYOLI!**

Amakim bilan bizning uyimizni ariqcha ajratib turardi. Momom, ya'ni amakimning xotini har kuni tomorqadan yoki hovlisidan chiqqan toshmi, g'isht parchasimi nima bo'lsa bizning hovliga qarab otar edi. Buni o'ziga qanday ep ko'rardi, hech tushunmaganman. Enam esa "Hahh, shu bolalarning esi yo'q-da!" deb bittalab tozalab olardi. Bilardi, kim qilayotganini ko'rardi, ammo achchiq-tirsiq so'z qilmasdi. Enam 73 yoshga kirdi, shu yoshiga qadar birovdan achchiqlanganini ko'rmadim.

Otam ziyoli edi. Sayohatlarni sevardi. Borgan joylaridan bizga bir dunyo sovg'a-salomlar olib kelardi. Qiynalibroq yashaydigan qo'shnimizning bolalariga yashirincha kiyim-kechak, yeguliklar ilinardi. Oshkora qila olmasdi. Qaynonasi – momomning g'azabidan hayiqardi, hayiqardi-yu, baribir bir qo'li xayrda edi.

Enamning xonadoni hamisha gavjum. Boladan tortib qari-qartanggacha uning aziz mehmoni. Bir kuni, ta'tilda edim, enamni yo'qlab bordim. Hovlida bir bola yuribdi, enamninng etagidan tutib, tomorqaga borsa, tomorqaga, oshxonaga kirsam oshxonaga ortidan ergashib yuribdi. "Ena, uyingizda

bu tengi bola bo'lmasa, bu kimning oldiga, kim bilan o'ynagani kelgan?" Enam darhol: "Qo'y, innama, o'zi anchadan beri kelgani yo'q, momosi bulardi ko'chirib, olisga chiqarvorgan, oldida bitta uy yo'q, o'ynagani hamsiya yo'q. Nima qiladi bitta o'zi, zerikadi-daa!"

Enam bilan "maza qilib g'iybat qilib" bo'lmaydi. Uning uchun hamma yaxshi odam. Birovni gapira boshlaganimizdan darrov oldini oladi: "Yag'ayyy, undaymas, judda yaxshi, u". Shundan keyin ham davom etsak "uxlab qoladi".

Kutubxonachi bo'lgan. Pensiyaga chiqqanidan keyin mahalla fuqarolar yig'iniga ishga chaqirib olishdi. Bu yer anchagina g'avg'oli. Ayniqsa, oilaviy mojarolarga shu yerda yechim izlanadi. Yechim topilmaganida uyiga sig'magan juvonlarni bola-baqراسi bilan uyiga olib kelardi. Ma'lum vaqt o'tganidan keyin har qanday inson soviydi. Sovuq aql bilan to'g'ri xulosaga kelinadi. Enam ularni baribir yarashtiradi. Xuddi o'z bolasining taqdiri hal bo'layotgandek jon kuydiradi. Shuning uchun enam mahalladan ishdan bo'shaganidan keyin ham qayta-qayta ishga taklif qilishdi.

Enam 8-mart kuni qutlug' 73 yoshga to'ladi. Uning ismi Oltin. Onasining ismi Gavhar edi. Gavhar momoning qizi Oltin enasining takroridir! Mening enam haqiqiy Oltin!

DUO BILAN EL KO'KARAR

Tarjimon Muharram TAJIQULOVA hikoyasi.

– Ayam... hayot uni eng yaxshi ota-onaning uzoq kutilgan dilbandi bo'lishdek baxt bilan siyladi. Kamtar, birovning ko'ngliga ozor bera olmaydigan ona. Bugun bolalari ardog'ida ekan, bunga mashaqqatli mehnati, fidokorligi bilan erishdi.

Ayam... u juda og'ir ayriliqlarni ham boshdan kechirdi. Avvaliga harbiy xizmatdagi ukamning o'limi... Hech kimning bolasi o'lmasin, onalar bolalari bilan sinalmasin. Ukam kenja farzand edi, ota-onam yer-u ko'kka ishonmay, behad sevib ulg'aytirgan o'g'illari edi. Dadamning bu musibatga bardoshi yetmadi...

Yaqinda ukasi olamdan o'tdi. Yomg'irli kunlar edi. Besh kun uning yonida qayg'usiga sherik bo'ldim. Ana shu besh kun bir narsaga amin bo'ldim: uning duolarida faqat biz bor ekanmiz, ya'ni biz, farzandlari.

Ayam ukasidan ayrilib, yurak-bag'ri kuyib ketyapti, sezyapman, buni boshdan o'tkazganman. Shu holatida ham ko'zlari menda: "Maharramoy, yomg'irda qolding-da, qo'llaring og'riydi... Maharramoy, bir

piyola issiq choy ichib ol, iching isisin, Maharramoy, sen hech narsa yemading, kel, manov xonaga kirib, bir qoshiqqina ovqat yeb ol!"

Ayam Maxfiratxon 1-mart kuni 70 yoshga to'ldi. Bor turishi shafqat, bor turishi mehr ayajonim, duogo'yim bor bo'lsin!

MENING AYAM – MALHAMI JON!

Musahhih Sayyora MIRZAYEVA hikoyasi.

– Hali maktabga chiqmagan vaqtlarim edi. Es-es xotirlayman, katta enamnikida yurganimda shahardan tog'am keldi. Ortidan ergashgan bo'lsam kerak, qaytayotganida meni ham o'zi bilan olib ketdi.

Shahar... juda uzoq va zerikarli edi. Bu yerda hamma band. O'qishga, ishga chiqib ketadi. Uyda o'zim qolaman, ularni kutaman. Ular esa... Kelib, allaqanday seriallar ko'rishadi. Bu menga sira-sira yoqmasdi. Seriallarni yoqtirmasligim o'sha bolalikdan qolgan.

Shunday kunlarning birida bitta barmoqchamda tirmog'imning tagidan yiringli yara chiqdi. Jonim og'rigandan og'ridi. Ayamga borgim keldi, ayamga borsam, tuzalib qoladigandek edi. Telefonlar yo'q. Uyda bitta o'zim. Ayni shunday damda ayam kelib qolsa deng. Bag'riga bosib qo'limni ko'rdi-da... yig'lab yubordi. Darhol malhamlar surib bog'ladi va tog'amlarni ham kutmay, meni olib, uyga, Jumaga qarab jo'nadik. O'sha paytlari avtouloular kam edi. Kun issiq, og'riqdan rangimda rang yo'q, avtobus tirband, unga chiqish... ayam bir menga, bir avtobusga qaradi, imkonsiz. Navbatdagi avtobusni yana ikki soat kutish kerak, o'shayam yursa. Shunda ayam avtobusning haydovchi o'tiradigan tomoniga meni yetaklab o'tdi-da, eshigini shart ochib, avval meni, keyin o'zi oshib o'tib, salonga chiqib oldik. Qayerdandir ko'zlari ola-kula bo'lib haydovchi yetib keldi, ayamga jahl bilan bir narsalar dedi. Uning gaplaridan "mumkin emas!" deganini angladim. Ayam esa unga "qizim shu ahvolda tiqilinchda qolsinmi?!" degan.

O'shandan beri aminmanki, onalarga farzandi uchun zarur bo'lsa, "mumkin emas!" degan to'siq yo'q ekan!

Bu hayotda. Ba'zan xasta bo'lasan, ba'zan hech kimga aytolmaydigan dardlar bilan qiynalasan. O'shanday paytda Samarqandga, ayamning issiq bag'riga intilaman. Uning bag'rda najot bor. Dardlarimning malhami u! Mavluda ismli malhami jon, U!

KIYILMAGAN ETIK

Filolog Mastura QURBONOVA:

– Yoshlik beg'amlik-da. Qo'qonda institutda o'qib yurgan kezarim edi. Ayam telefon qilib qoldi. Qo'qon bozoriga ish bilan kelayotgan ekan. Bozor qilishga kelayotganini eshitdim-u, "Men ham chiqaman" dedim. "Sen kelib yurishing shart emas" deganiga

*Bahor, yur, onamni boraylik yo'qlab,
Ishon, yaxshi ko'rib qolasan uni.*

Behzod Fazliddin

qaramasdan, "Yo'q-yo'q, boraman!" deb apil-tapil tayyor bo'ldim. Chaqqonman-da!

Ayam sinfdoshlar yig'iniga borish uchun o'ziga ko'ylak olmoqchi ekan. Ona-qiz bozor aylana boshladik. Shu payt ko'zim chiroyli bir etikka tushib qoldi. Xuddi menga atalgandek, biram bejirim etik. "Aya, shu etikni olib bering, keyingi hafta dugonamning to'yi, shuni kiyib boraman", dedim. Ayam esa "Hozir zaril emas-ku, keyinroq..." deyishi bilan qovog'im osilib ketdi. Hech narsa yoqmay qoldi. Ayam baribir meni qiya olmay, etikni olib berdi. Sevinib ketdim. Etik rostdan ham chiroyli edi-da. Shu kuni yana picha bozor aylandik, ayam ul-bul narsalar xarid qilib, uyga qaytib ketdi.

U kunlarning o'tib ketganiga ham o'n yillardan oshdi. Ikki yil avval onam, qizim bilan yana Qo'qon bozoriga bordik. O'zimga yoqqan sumkani sotib oldim. Qizim "Menga ham olib bering", degan edi, "Yo'q!" dedim. Qovog'ini osib oldi. "Qovog'ingni ossang osaver, baribir olib bermayman, sumkalaring yetarli!" deb qat'iy uzdim.

Uyga kelganimizdan keyin ham sumka mavzusi yopiladi. Shunda ayam talabalik payti menga olib bergan etikni eslatdi. "Qizingga osongina yo'q, deding. Lekin o'sha paytda men senga yo'q deya olmaganman. Senga yoqqan etikni olib berganman, keyin ko'ylakka pulim qolmagan edi", desa... Yuragim bir qalqib ketgandek bo'ldi. Ichimga bir o't tushgandek. Yillarcha avval qilgan erkaligim uchun vijdonim shunday qiynaldiki, asti qo'yaverasiz. Eng qizig'i, o'sha etikni bir marta ham kiymadim. To'y kuni kasal bo'lib qoldim. Tuzalganimda bahor kelgan edi. Turmushga chiqib ketdim, homiladorligim qish faslida kechdi, o'zimni avaylab poshnali oyoq kiyimlardan voz kechdim. Ishqilib, o'sha etik qutida turaverib eskirdi.

Ayam... Fidokor ona! Yosh oilamiz. Homiladorman, o'qishni davom ettirishim kerak. Pul zarur bo'lib qoldi. Erimdan yoki oilasidan so'rashga iymandim. Yaxshiyam ayam bor. O'shanda hech ikkilanmay, barmog'idagi uzukni yechib, sotib, pulini qo'limga tutqazdi.


Hayotimdan nolimayman. Ishim, sevimli oilam bor. Onalarimizni siylay oladigan imkonimiz bor. Qo'limdan kelganicha ayamni siyladim. Ko'ylak ham olib berdim, uzuklar sovg'a qildim. Ammo vaqti-vaqti bilan ayamning menga etik olib, o'zi ko'ylak ololmagani yuragimni bezovta qilaveradi.

Ayajonimning ismi ham boshqacha – Olyaxon! Azizam, fidokorim, bayramingiz qutlug' bo'lsin!

Aziz onajonlar, qizlar, qizaloqlar, yana bir bahor qutlug' bo'lsin, bahorning o'zi kabi go'zal, qo'rli, qutli bayramlari muborak bo'lsin!

**Inobat IBROHIMOVA,
"Vatanparvar"**

Ayyom shukhi



Bugun yurtimizda ayollarga qaratilayotgan e'tibor, ularning hayotdagi faolligini yanada oshirish va gender tenglikni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami tobora kengayib bormoqda. Mazkur yo'nalishdagi tub islohotlar zamirida xotin-qizlarimizni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi o'rni va nufuzini yanada yuksaltirish, qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqargan holda, salohiyatlarini yuzaga chiqarib, opa-singillarimizning Yangi O'zbekistonda baxtli hayot kechirishini ta'minlashdek ezgu g'oyalar mujassam.

ONAGA EHTIROM



Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy gospitalida ham "Ayollarni e'zozlash oyligi" doirasida "Onaga ehtirom" nomli ma'naviy tadbir bo'lib o'tdi.

E'tiborlisi, 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan o'tkazilgan ushbu tadbir avvalgilaridan farq qilib, farzandlarining xizmat joyiga kelgan onalar harbiy orkestr sadolari ostida tantanali tarzda kutib olindi. Farzandi qo'lidan guldastalar qabul qilib olish esa har bir ona qalbiga olam-olam quvonch bag'ishladi.

Shundan so'ng tashkil etilgan davra suhbatida harbiylar, olima ayollar va ishchi-xizmatchilar ishtirok etdi. Unda so'z olganlar bugungi kunda Yangi O'zbekistonni barpo etish va xalqimiz farovonligini yuksaltirish yo'lida alohida tashabbus hamda ibrat ko'rsatib kelayotgan ayollarning soni tobora ortib borayotgani, ularni e'zozlash va har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun esa barcha sharoitlar yaratilayotgani ta'kidlandi.

– Biz hamisha bunday bayram tadbirlarida yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan xotin-qizlarimiz, opa-singillarimiz bilan uchrashib kelganmiz. Bugungi tadbirning menga eng yoqqan jihati shu bo'ldiki, bu yerda onalarga alohida ehtirom ko'rsatilib, ularni kirib kelishlaridanoq bir tomonda harbiy orkestr, ikkinchi tomonda farzandlari qo'lida guldastalar bilan kutib oldi. Bundan ortiq baxt bormi?! Onani e'zozlash kerak, onani ko'klarga ko'tarish kerak. Chunki uning farzand hayotidagi o'rnini hech narsa bilan qiyoslab, ta'riflab bo'lmaydi, – deydi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi targ'ibotchisi, xalqaro ekspert Jamila Shermuhamedova.

Tadbir davomida barcha onaxonlarga yurt koriga yaraydigan, asl vatanparvar farzandlarni tarbiyalab, kamolga yetkazganlari uchun tashakkurnomalar hamda esdalik sovg'alar tantanali tarzda topshirildi.

– Bugun unutilmas onlar va yorqin lahzalarga boy kun bo'ldi. Farzandim shu harbiy gospitalda faoliyat olib boryapti. Onajon, sizni ish joyimga olib borib, hamkasblarim bilan tanishtiraman deganida, bunaqa jarayonlar bo'lishini, hatto xayolimga ham keltirmagan edim. Juda ham xursandman. O'g'limning ortidan rahmatlar eshitdim. Farzand o'stirayotgan barcha onalarga ham

mana shunday quvonchli kunlar nasib etishini tilayman, – deydi Mohina Isabekova.

Tadbirning badiiy qismida Chegara qo'shinlari Ashula va raqs ansambli xonandalari tomonidan ijro etilgan insoniylik, mehr-oqibat va fidoyilikni tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlar barchaga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

Mayor
Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari



Safda turgan alplar

VATANGA SADOQAT VA MUHABBAT IFODASI

Harbiy qism hududida tong boshqacha otadi. Bu yerda quyoshdan oldin uyg'ongan oriyat bor. Sokinlikni buzgan ilk buyruq ovozi, saf maydonida baralla yangragan qadam tovushlari, ko'ksini tik tutgan yigitlar – bularning barchasi Vatan degan muqaddas so'zning amaldagi ifodasi.



Har bir tong mas'uliyat bilan boshlanadi. Har bir saf qasamyodning davomidir. Har bir askar ortida esa bir hayot, bir oila, bir orzu va bir qalb yashaydi. Ana shunday yigitlardan biri – Farg'ona viloyati Dang'ara tumanida tug'ilgan Sanjarbek Dehqonboyev. Bugun u Jizzax viloyatida joylashgan harbiy qismda muddatli harbiy xizmatni o'tamoqda. Xizmat muddati yakunlanish arafasida. Ammo u bu dargohni tark etayotgan oddiy askar emas – u bu yerdan yanada chiniqqan, maqsadi aniq va kelajagini belgilab olgan yigit sifatida chiqmoqda.

BOLALIKDAGI SOKIN SATRLAR

Sanjarbek bilan mashg'ulotlardan keyin suhbatlashdik. Harbiy libos unga jiddiylik bag'ishlagan, ammo nigohlarida hali ham o'sha bolalikdagi orzular jilosi bor.

– Ijodga mehr qachon uyg'ongan?

– Maktab davrida, – deydi u. – Kitob o'qishni juda yaxshi ko'rardim. O'qiganlarim ta'sirida o'zim ham yozib ko'rdim. Dastlab kichik hikoyalar yozdim. Ular ko'proq ichki kechinmalarim haqida edi.

U o'sha paytda yozganlarini ko'pchilikka ko'rsatmagan.

– Yozish men uchun shuhrat emas edi. Bu – qalbm bilan suhbat edi.

Bu javobdan bir haqiqat anglashiladi: haqiqiy ijod ichkaridan tug'iladi. Uni majbur qilib bo'lmaydi.

HARBIYLIK – HAYOT MAKTABI

Bugun u safda. Har kuni intizom, sabr va jasorat sinovidan o'tmoqda.

– Harbiy xizmat sizni o'zgartirdimi?

– Juda ko'p narsani o'rgatdi. Bu yerda vaqtning qadrini, jamoaning ahamiyatini va Vatan oldidagi mas'uliyatni his qilaisiz. Har kuni o'zingizni yengasiz.

Darhaqiqat, harbiy xizmat yigitni nafaqat jismonan, balki ma'nan ham ulg'aytiradi. Safdagi do'stlik, qiyinchiliklarni birgalikda yengish hayotning katta saboqlaridir.

DALA-O'QUV MAYDONI VA MASHG'ULOTLAR

Harbiy xizmat faqat qurol ushlash emas. Har bir kun – o'rganish, chiniqish va o'z ustida ishlash sinovi. "Forish" dala-o'quv maydonida mashg'ulotlar tongdan kechgacha davom etadi. Saf maydonida yugurish, qurol va texnika bilan ishlash, yong'in va favqulodda vaziyatlarni boshqarish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar – harbiylik maktabining ajralmas qismi.

Sanjarbekning so'zlariga ko'ra, har bir mashg'ulot nafaqat jismoniy chidamlilikni, balki aql, tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini ham sinaydi. Dala-o'quv maydonida o'tkaziladigan mashg'ulotlar nafaqat aniqlik, balki qat'iyat va mas'uliyatni ham o'rgatadi. Yuzlab metr masofaga tezkor harakat qilish, har bir buyruqni darhol bajarish, xavfsizlikni saqlash bular oddiy harbiy mashg'ulot emas, balki hayot maktabidir.

– Mashg'ulotlar sizga qanday ta'sir qildi?

– Har bir mashg'ulot meni yanada kuchli va qat'iyatli qiladi. Qattiq jismoniy sinovlar, savodxonlik mashg'ulotlari va amaliy topshiriqlar orqali nafaqat tanam, balki ongim ham mustahkamlandi. Dala maydonidagi har bir qadam – bu Vatan himoyasidagi sharaflı xizmatga tayyorgarlikdir, – deydi Sanjarbek.

YANGI TIZIM – YANGI IMKONIYATLAR

Bugun mamlakatimizda harbiy xizmat nafaqat burch, balki kasb va hayotiy tajriba maktabiga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni raisligida o'tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida harbiy kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha muhim vazifalar belgilangandi.

Xususan, muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan yoshlar xizmat davomida kamida bitta kasb egasi bo'lib chiqishini ta'minlashga qaratilgan yangi tizim joriy etildi.

Sanjarbek xizmat qilayotgan harbiy qismda ham 6 ta yo'nalish – avtomobil ustasi, elektr ustasi, payvandlash, santexnika, IT va axborot texnologiyalari bo'yicha bepul o'qitish yo'lga

qo'yilgan. Bundan tashqari, ingliz, nemis va rus tillarini o'rganish imkoniyati ham yaratilgan.

– Siz qaysi yo'nalishni tanladingiz?

– Axborot texnologiyalari hamda ingliz tili yo'nalishini. Bu orqali kompyuter savodxonligimni mustahkamlab, dasturiy ta'minot asoslari, axborot xavfsizligi va zamonaviy texnologiyalar bo'yicha yangi bilimlar oldim. Ingliz tilini o'rganish esa chet el manbalarini o'qish imkonini bermiqda.

Bugungi harbiy xizmatchi nafaqat qurolni, balki zamonaviy texnologiyani ham puxta bilishi kerak. Ana shunday tizim yoshlarning ertangi kuniga mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

QAT'IY QAROR

Sanjarbekning xizmat muddati yakunlanmoqda. Ammo u safni tark etmoqchi emas.

– Harbiylikni davom ettirmoqchiman. Bu mening ongli tanlovim, – deydi u qat'iyat bilan.

– Bizga yaratilgan sharoitlar, kasb o'rganish va til o'rganish imkoniyatlari uchun minnatdorman. Bu tizim bizni hayotga yanada tayyorlaydi.

Bu qaror tasodifiy emas. Bu – xizmat davomida shakllangan ishonch, oriyat va mas'uliyat natijasi.

Bu minnatdorlik ortida yuksak ishonch bor – Vatan unga imkon berdi, endi u Vatanga xizmat qiladi.

Bugun u oddiy askar. Ertaga esa bilimli, kasb egasi, ehtimol professional harbiy bo'lishi mumkin.

Bir qo'lida qurol – Vatan himoyasi uchun. Bir qo'lida qalam – ma'naviyat uchun.

Zamonaviy bilim esa uning uchinchi quroli.

Oddiy askar Sanjarbek Dehqonboyev timsolida biz yangi O'zbekiston yoshlarini ko'ramiz – sadoqatli, izlanuvchan, bilimli va kelajakka ishonch bilan qaraydigan avlodni.

Harbiy qism hududida tong boshqacha otadi. Ammo eng yorug' tong ana shunday yigitlarning qalbida otayotgan tongdir.

Yurtimizda shunday o'g'lonlar bor ekan, Vatanimizning buguni ham, ertasi ham ishonchli qo'llarda.



**Markaziy harbiy okrug
matbuot xizmati bosh mutaxassisi
Parvina ABDUHAMIDOVA suhbatlashdi.**



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

HAR BIR YOSH TAQDIRI — davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi

So'nggi yillarda mamlakatimiz rahbari tomonidan yoshlar masalasiga qaratilayotgan yuksak e'tibor, ayniqsa ijtimoiy jihatdan og'ir toifaga kiruvchi yigit-qizlar taqdirida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ularning bandligini ta'minlash, kasb-hunar o'rgatish, tadbirkorlikka jalb etish, harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va jamiyatga moslashtirish bo'yicha keng ko'lamli tizimli ishlar yo'lga qo'yildi.

Hududlarda "mahallabay" va "yoshlarbay" ishlash mexanizmining joriy etilishi, yoshlar bilan manzilli ishlash, ularning muammolarini joyida hal etish amaliyoti davlat siyosatining insonparvarlik mohiyatini ochib bermoqda. Endilikda har bir og'ir toifadagi yosh alohida nazoratda, e'tiborda va alohida yondashuv asosida qo'llab-quvvatlanmoqda.

Jamiyatda ba'zan og'ir toifadagi yoshlar muammo sifatida ko'riladi. Aslida esa ular noto'g'ri sharoit qurbonlari bo'lishi mumkin. Oilaviy muhitdagi bo'shliq, iqtisodiy qiyinchilik, e'tiborsizlik yoki

salbiy ta'sir natijasida adashgan yosh – bu hali yo'qotilgan taqdir emas.

Davlat rahbari tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan ijtimoiy himoya, ta'lim va bandlik dasturlari minglab yoshlarning hayotini tubdan o'zgartirmoqda. Bir paytlar nazoratsiz qolgan yigit-qizlar bugun ishlab chiqarish korxonalarida mehnat qilmoqda, tadbirkorlik faoliyatini boshlamoqda, sportda va san'atda yutuqlarga erishmoqda, harbiy xizmat saflarida Vatanga sadoqat bilan xizmat qilmoqda.

Og'ir toifadagi yoshlar bilan ishlash jazoga asoslangan yondashuv bilan emas, balki tarbiya, tushuntirish va imkoniyat yaratish tamoyili bilan olib borilmoqda. Chunki har bir yoshning qalbiga yo'l topish uni jamiyatning faol a'zosiga aylantirish demakdir. Bugun mahalla, ta'lim muassasalari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, harbiy tuzilmalar va jamoat tashkilotlari o'zaro hamkorlikda ishlamoqda. Har bir mas'ul rahbar o'z hududidagi yoshlar taqdiri uchun javobgarlikni his qilmoqda. Zero

bir yoshning adashuvi – bu bitta oilaning fojiasi. Bir yoshning to'g'ri yo'lga qaytishi bu butun jamiyatning yutug'idir. Kelajak uchun kurash – bugundan boshlanadi. Yoshlar siyosatiga bugun mamlakatimizda davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Og'ir toifadagi yoshlar bilan ishlash esa uning eng nozik va mas'uliyatli qismidir.

Davlat rahbarining qat'iy pozitsiyasi shundan iboratki: har bir yosh o'z o'mini topishi shart, orzusi qo'llab-quvvatlanishi kerak.

Shu bois bugungi islohotlar zamirida bitta ulug' maqsad mujassam: ijtimoiy jihatdan og'ir toifadagi yoshlarni jamiyatning faol, mas'uliyatli, vatanparvar va fidoyi a'zolariga aylantirish. Bu – davlat ahamiyatiga molik vazifa. Bu – millat kelajagi bilan bog'liq masala. Bu – har birimizning vijdoniy burchimiz.

Har bir og'ir toifadagi yoshning taqdiri Yangi O'zbekiston kelajagining ajralmas qismidir.

Kapitan

Hasanboy ABDUMANNONOV

2026-yil – Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili



Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar markazida inson qadri, uning farovon hayoti va jamiyat barqarorligi turibdi. Shu maqsadda 2026-yilning "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilinishi davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri – mahalla institutini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va uning imkoniyatlarini yanada kengaytirishga qaratilgan muhim tashabbus bo'ldi.

Mahalla qadimdan xalqimizning o'ziga xos ijtimoiy boshqaruv maktabi sifatida shakllangan. U nafaqat hududiy birlik, balki insonlarni birlashtiruvchi, mehr-oqibat, hamjihatlik va o'zaro yordam tamoyillarini mustahkamlaydigan muhim ijtimoiy muhitdir. Bugungi globalashuv davrida aynan mahalla jamiyat barqarorligini ta'minlovchi eng yaqin va samarali tizim sifatida namoyon bo'lmoqda.

So'nggi yillarda mahallalarda infratuzilmani yaxshilash, aholi bandligini ta'minlash, yoshlar va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Yangi ish o'rinlari yaratish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, kasb-hunarga o'qitish markazlarini tashkil etish orqali mahalla iqtisodiy faollik markaziga aylanib bormoqda. Bu esa aholi daromadlari oshishiga va ijtimoiy muammolarni joyida hal etishga xizmat qilmoqda.



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

JAMIYAT taraqqiyotining tayanchi

Mahalla – bu tarbiya maskani. Unda milliy qadriyatlar, urf-odatlar va avlodlar davomiyligi saqlanadi. Keksalarning hayotiy tajribasi, yoshlarning shijoati va ayollarning bunyodkorlik salohiyati uyg'unlashgan muhit jamiyatning ma'naviy poydevorini mustahkamlaydi.

Bugun har bir fuqaroning mahalla hayotidagi faolligi jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylanmoqda. Obod ko'chalar, namunali xonadonlar, tashabbuskor yoshlar va hamjihat aholi rivojlangan mahallaning eng asosiy belgilaridir. Shu bois mahallani rivojlantirish, aslida butun jamiyat kelajagini rivojlantirish demakdir.

Xulosa qilib aytganda, 2026-yilning "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilinishi xalq va davlat o'rtasidagi yaqin hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Mahalla kuchli bo'lsa – jamiyat barqaror, jamiyat barqaror bo'lsa – mamlakat taraqqiyoti izchil davom etadi.

Rustam BOZOROV,
Qarshi davlat texnika universiteti
assistent o'qituvchisi

ONA YURT OSOYISHTALIGI YO'LIDA



Harbiylik oddiy kasb emas. Mazkur yo'lni tanlagan inson o'z hayotini ona Vatana tinchligi va uning osoyishtaligiga bag'ishlaydi. Bu esa, jasorat, matonat, temir intizom va chuqur mas'uliyatni talab etadi.

Ana shunday fazilatlarini o'z hayoti va faoliyatida mujassam etgan fidoyi yurt himoyachilari orasida IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli harbiy qism komandiri polkovnik Alisher Sharipov alohida o'rin tutadi. Uning hayot yo'li, xizmat faoliyati va rahbarlik uslubi har qanday harbiy xizmatchi uchun ibrat maktabidir. Chunki u nafaqat tajribali komandir, balki inson qalbini tushuna oladigan, jamoani bir maqsad sari yetaklaydigan haqiqiy rahbar sifatida ham tanilgan.

Lavhamiz qahramoni faoliyatini sohani puxta egallash va qat'iy irodali bo'lishdan boshlagan ofitserlardan. U 2008-yilda Toshkent oliy harbiy texnika bilim yurtini, 2015-yilda esa O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar akademiyasini muvaffaqiyatli tamomladi. Bu bilim dargohlari unga harbiy xizmatning nazariy va amaliy asoslarini chuqur o'zlashtirish imkonini berdi.

Ilk faoliyatini IIV Qorovul qo'shinlari harbiy qismida guruh

komandiri lavozimidan boshlagan Alisher Sharipov qisqa vaqt ichida o'zini intizomli, mas'uliyatli va tashabbuskor ofitser sifatida namoyon etdi. Keyinchalik u harbiy qismning tashkillashtirish va jamlash bo'linmasida katta yordamchi hamda ushbu bo'linma boshlig'i lavozimlarida samarali xizmat qildi.

O'tgan yillar davomida mansab pillapoyalari sari ko'tarila borgan bu inson hozirda harbiy qism komandiri. Mazkur lavozimiga tayinlanishi uning xizmatidagi muhim bosqich bo'ldi. Tinib-tinchimas A. Sharipov qayerda, qaysi lavozimda bo'lmasin, o'z ishiga vijdonan yondashishi, ona Vatanga sadoqati va fidoyiligi bilan ajralib turadi. U jangovar tayyorgarlikni tashkil etish, shaxsiy tarkibning ma'naviy-ruhiy holatini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratadi. Chunki u yaxshi biladi: intizomli, ruhan barkamol askar – ishonchli himoyachi. U jangovar xizmatni muvofiqlashtirish, qo'riqlanadigan obyektlar xavfsizligini ta'minlash, tezkor rejalashtirish va qo'shinlar tayyorgarligini nazorat qilish kabi mas'uliyatli vazifalarni yuksak mahorat bilan bajardi.

Komandir sifatida har bir xizmatchini farzandidek qadrlaydi.

Ularning yutug'ini o'z muvaffaqiyatidek qabul qiladi, muammosiga befarq bo'lmaydi. Har qanday qarorni adolat mezonlari asosida qabul qilishi, jamoada o'zaro hurmat va ishonch muhitini yaratishi bilan alohida e'tibor qozongan.

Uning rahbarligida harbiy qism jamoasi intizomli, faol va birdam jamoaga aylandi. Bu yerda xizmat qilayotgan barcha osoyishtalik posbonlari ona Vatanga mehr-muhabbat va burchga sadoqat tuyg'usini qalbidan his etadi. Polkovnik Alisher Sharipov uchun harbiy xizmat faqat buyruq va talab emas, balki tarbiya, ishonch va shaxsiy namunadir.

Bu inson tajribali harbiy bo'lish bilan birga, yoshlarning haqiqiy ustozidir hamdir. Shu sababli ular ustozidan nafaqat xizmat sirlarini, balki insonparvarlik, kamtarlik va mas'uliyatni ham o'rganadi. Uning hayotga va xizmatga bo'lgan munosabati ko'pchilikka ibrat bo'lib kelmoqda.

Polkovnik A. Sharipov ona yurtga sidqidildan xizmat qilishni o'z hayotining mazmuniga aylantirgan inson. Uning xizmat yo'li, faoliyati va shaxsiy fazilatlarini barcha harbiylar uchun namuna, yosh avlod uchun esa ibrat maktabidir. Bunday fidoyi, adolatli va insonparvar komandirlar bor ekan, mamlakatimiz tinchligi, xalqimiz osoyishtaligi doimo ishonchli qo'llarda ekaniga shak-shubha yo'q.

Kichik serjant
Abduhamid OLLAYOROV

Ma'naviyat

Milliy qadriyatlar targ'ib etildi

Yangi nafas, yangi umid, yangi orzular fasli – bahor yurtimizga qadam qo'yishi bilan qalblarda o'zgacha shodlik uyg'onadi. Asrlar osha bizga meros bo'lib kelayotgan Navro'z esa ana shu yangilanish va ezgulik timsolidir. U finchlik va totuvlik, mehr-oqibat va farovonlik bayrami sifatida barcha millat va elat vakillarini bir dasturxon atrofida jamlaydi.

Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligiga qarashli, Olmaliq shahrida joylashgan harbiy qismda "Har kuning Navro'z bo'lsin, jonajon O'zbekistonim!" shiori ostida milliy an'ana va urf-odatlarimizni o'zida mujassam etgan bayram tadbiri tashkil etildi.

Erta tongdan doshqozonlarda sumalak qaynay boshladi. Hamjihatlikda tayyorlangan milliy taomlar dasturxonga fayz kiritdi. Har bir harakatda birlik, har bir tabassumda mehr aks etdi.

Tadbirda Olmaliq shahri hokimligi, kon-metallurgiya kombinati va shahar madaniyat bo'limi vakillari mehmon sifatida ishtirok etdi. Ular bayramona muhitni harbiy xizmatchilar bilan birgalikda baham ko'rdilar.

Ayniqsa, milliy sport musobaqalari tadbirga alohida jo'shqinlik bag'ishladi. Ularda nafaqat harbiy xizmatchilar, balki ularning oila a'zolari va farzandlari ham



faol qatnashdi. Bu esa bayramning mazmun-mohiyatini yanada boyitdi. Harbiy orkestr jamoasi ijrosida yangragan ko'p asrlik kuy-qo'shiqlar esa maydonni haqiqiy bayram ruhiga chulg'adi.

Ha, bahor – yangilanish va yosharish fasli. Ana shunday qutlug' kunlarda o'tkazilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari o'rtasida milliy qadriyatlarimizga hurmat va sadoqat tuyg'usini yanada mustahkamlashi bilan ahamiyatlidir. Zero milliy an'analariga tayanilgan tarbiya Vatanga muhabbat va sadoqatning mustahkam poydevoridir.

TOQQQ matbuot xizmati

Ijodkor harbiylar



“Ijodkor harbiylar” ruknimizning navbatdagi mehmoni kichik serjant Aliyorjon Mirazimov. U ilkidagi sharaflı burchni ado etish barobarida ko‘p yillardan buyon ijod bilan shug‘ullanib keladi. Aliyorjonning she‘riy mashqlarini 2015-yildan buyon kuzatib boraman. U muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar sifatida yigıtlık burchini o‘tayotgan davrida tahririyatimizga ijod namunalari yuborgan edi. Posbon yigıtdagi she‘riyatga bo‘lgan mehr, o‘ziga xos iqtidor, she‘riy mashqlaridagi dilga yaqin satrlar e‘tiborimizni tortdi. Uning ijodidan namunalarni gazeta sahifalarida berib bordik.

YONIQ TUYG‘ULARGA oshno



NEGA XAT
YOZMAYAPSIZ?

Qo‘limda qog‘oz, qalam,
Xayolimda yana siz.
Yurakda so‘roq, alam,
Nega xat yozmayapsiz?

BAHOR

Kichik serjant Mirazimovning harbiy sohadagi faoliyati va ijodiga to‘xtaladigan bo‘lsak, u muddatli harbiy xizmatdan so‘ng faoliyatini kontrakt bo‘yicha davom ettirib, Vatan himoyachilari safidan joy oldi. Zimmasidagi mas‘uliyatli vazifaga e‘tibor ila yondashgani sabab bir qator yutuqlarni qo‘lga kiritdi.

G‘ayratli yigit ijodiy faoliyatini ham to‘xtatmadi, she‘rlari va maqolalari bilan respublikamizdagi bir qator gazetalarda ishtirok etib turdi. Vatanparvarlik tuyg‘usi, ona yurt ta‘rifi, tinchlik va hurlik shukhi, yurti asrash sharaflı burch ekani Aliyorjon Mirazimov ijodida munosib joy egallagan. Ijodkor harbiy yigit 2022-yili “Yurakka sig‘magan satrlar”, 2024-yili “O‘zbekistonim” nomli she‘rlar to‘plamini muxlislariga taqdim etdi. Uning ijodida harbiy xizmatchiga xos bo‘lgan jo‘mardlik, shijoat, yurtga muhabbat va fidoyilikni kuzatish mumkin.

Aliyorjon Mirazimovning mas‘uliyatli vazifasida qo‘lga kiritgan, e‘tirof topgan muvaffaqiyatlari talaygina. Uning xizmatda erishgan yutuqlariga e‘tibor beraman: III darajali “Namunali xizmati uchun” hamda “Yurt iftixori” ko‘krak nishonlari bilan taqdirlangan. Shuningdek, “Mamlakat oltin fondi” hamjamiyati a‘zosi.

Aziz she‘riyat shaydolari, kichik serjant Aliyorjon Mirazimovning sizga taqdim etayotgan she‘riy mashqlari dilingizdan joy egallashiga, go‘zal satrlar qalbingizda nurli iz qoldirishiga ishonamiz.

Zulfiya YUNUSOVA, “Vatanparvar”

VATAN

Vatan nima – ota-yu ona,
Biz tug‘ilgan go‘zal koshona.
Vatan so‘zi jon qadar aziz,
Tengsiz go‘sha, mo‘tabar, laziz.

Vatan asli mehr-u sadoqat,
Xizmatiga shay turmoq rohat.
Qishloq, shahar va suygan dildor,
Do‘st, birodar, go‘zal istiqbol.

Bir kaftgina tuprog‘im – Vatan.
Gulga to‘lgan quchog‘im – Vatan.
Asli o‘zing shavkatim, shonim,
Fido bo‘lsin senga shu jonim!

Olamni yashnatib, qaytdingmi bahor?
Seni ko‘p sog‘indik, kutdik har nahor.
Ishq zavqin dillarga etib payvasta,
Har yonda iforing tutib guldasta,
Dillarni yashnatib qaytdingmi, bahor?

Tog‘larni quchoqlab ochilgan lola,
Varraklar uchirgan shodon har bola,
Doshqozon ostida yonar alanga,
Sumalak qaynatar xola-yu amma,
Olamni yashnatib qaytdingmi, bahor?

Bodomlar gulladi, o‘riklar marjon,
Tolpopuk sochlarni ko‘rib, o‘ynar jon.
Chuchmoma tutgan bu mitti qo‘lchalar,
Quvonchdan ko‘zlari yongan qizchalar,
Dillarni yayratib qaytdingmi, bahor?

ONAM SOG‘INCHI

Ostonada kutar mushtipar onam,
Sog‘inchdan yo‘l chizgan ko‘zlarida nam.
Tun-u kun poylaydi, ko‘cha boshini,
Katta to‘ylar qilay, kelsa deb bolam.

Onamning osmonday orzulari bor,
Menga kelin tanlab, kutar umidvor.
Sog‘inchning dardini ichiga yutib,
Yo‘limga intizor kelishim kutib.

Yaqinda qaytaman, mushtoqman men ham,
Quchog‘im gullarga to‘lib boraman.
Onamning oldiga yorug‘ yuz bilan,
Yurtning mard posboni bo‘lib boraman.

Yurak sog‘inma dedi,
Dilni shubhalar yedi.
Ayting, aybim ne edi,
Nega xat yozmayapsiz?

Sevishimni bilasiz,
Noz-la bag‘rim tilasiz.
Yo ataylab qilasiz,
Nega xat yozmayapsiz?

Jonim qo‘ymang xatarga,
Men bir ulug‘ safarda.
Mard va jasur askarga,
Nega xat yozmayapsiz?

HARBIYLARNING AYOLI

Tog‘lardayin yuksak sabri, bardoshi,
Nafosat, qanoat, mehr sirdoshi.
Dunyoni ilitgan ko‘ngil quyoshi,
Bu harbiy o‘g‘lonlar turmush o‘rtog‘i,
Sheryurak yigitlar ko‘nglining tog‘i.

Sochlariga oshiq hatto majnuntol,
Xayo-la yuz ochgan ko‘kdagi hilol.
Shabnamdek musaffo yanoqlari ol,
Bu harbiy o‘g‘lonlar turmush o‘rtog‘i,
Sheryurak yigitlar ko‘nglining tog‘i.

Agar bir mo‘jiza bo‘lsa, bu sizlar,
Eng yovqur yigitga berilgan ko‘zlar.
Farishta chehra-yu, oftobli yuzlar,
Siz harbiy o‘g‘lonlar turmush o‘rtog‘i,
Sheryurak o‘g‘lonlar ko‘nglining tog‘i.


Ma'naviyat

Zamonaviy hayot insonni doimiy ruhiy bosim ostida qoldirmoqda. Ammo har bir inson qo'lida stressga qarshi kuchli qurol bor, bu kitobdir. Bugungi raqamli asrda inson e'tibori doimiy ravishda turli axborot oqimlari bilan band. Ijtimoiy tarmoqlar, qisqa videolar va tezkor xabarlar fikrlashni yuzaki qilish xavfini tug'diradi. Bunday sharoitda kitob o'qish inson ongini chuqurlashtiradigan, fikrni tartibga soladigan va ruhiyatni barqarorlashtiradigan muhim vosita bo'lib qolmoqda.

Kitob o'qish jarayonida inson tasavvur qiladi, tahlil qiladi, xulosa chiqaradi. Bu esa miyani faol ishlashga majbur qiladi. Tadqiqotlar muntazam o'qish katta yoshdagi insonlarda aqliy susayishni sekinlashtirishini ko'rsatadi. Shuningdek, o'qish lug'at boyligini oshiradi. Yangi so'zlar va fikrni ifodalash uslublari nutq ravonligini ta'minlaydi. Ko'p o'qigan inson o'z fikrini aniq va asosli ifoda eta oladi.

Ilmiy kuzatuvlar atigi bir necha daqiqa o'qish ham stress darajasini sezilarli kamaytirishini ko'rsatadi. Kitob o'qish insonni boshqa olamga olib kiradi. Bu jarayon meditatsiyaga o'xshash ta'sir ko'rsatib, asab tizimini tinchlantiradi. Ayniqsa, kechqurun o'qish uyqu sifatini yaxshilaydi.

KITOB—



stressga qarshi eng kuchli qurol

Stressning asosiy sababi doimiy axborot yuklamasi, tashqi muhitdan keladigan muammoli vaziyatlar va e'tiborning parchalanganidir. Kitob esa aksincha, diqqat-e'tiborni jamlaydi. U insonni sekinlashishga, fikrni chuqurlashtirishga va o'z ichki dunyosiga nazar tashlashga majbur qiladi. Shu bois o'qish ruhiy tiklanishning tabiiy shakli hisoblanadi.

Badiiy asarlarni o'qish orqali inson turli qahramonlarning ichki dunyosiga kiradi. Bu esa boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish qobiliyatini kuchaytiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, badiiy adabiyot o'qigan insonlar empatiya (*inson boshqaning kayfiyatini, ichki holatini va nuqtayi nazarini qanchalik to'g'ri anglay oladigan test*) testlarida yuqori natija ko'rsatadi. Demak, kitob insonni nafaqat bilimli, balki mehribon va tushunadigan shaxsga aylantiradi.

Kitoblar yangi g'oyalar, qarashlar va hayotiy tajribalarni ochib beradi. O'qish jarayonida inson tasavvuri kengayadi,

muammolarga noodatiy yondashuv shakllanadi. Qisqa hikoyalar o'qigan insonlarda ijodkorlik ko'rsatkichlari yuqori bo'lishi aniqlangan. Bu esa tafakkurning moslashuvchanligini oshirishini ko'rsatadi.

Kitoblar orqali inson turli madaniyatlar, jamiyatlar va tarixiy davrlar bilan tanishadi. Bu esa bir masalaga turli nuqtayi nazardan qarash imkonini beradi. O'qish insonni bag'rikenglikka o'rgatadi. U o'z qarashlarini qayta ko'rib chiqishga va yangicha xulosalar chiqarishga undaydi.

Kasbiy adabiyotlar yangi ko'nikmalarni egallashga yordam beradi. O'z-o'zini rivojlantirishga oid kitoblar esa motivatsiyani oshiradi. Muntazam o'qiydigan inson qaror qabul qilishda aniqroq, muloqotda samaraliroq va vazifalarni bajarishda mas'uliyatliroq bo'ladi. Bu esa kasbiy muvaffaqiyatga zamin yaratadi.

Yotishdan oldin kitob o'qish organizmni tinchlantiradi. Ekranlardan

uzoqlashish esa miya faoliyatini barqarorlashtiradi. Bir necha daqiqalik o'qish ham uyqu sifatini yaxshilashi mumkin.

Kitob o'qish inson tafakkurini kengaytiradigan, ruhiyatini mustahkamlaydigan va hayot sifatini oshiradigan muhim odatdir. U:

- aqliy salohiyatni rivojlantiradi;
- stressni kamaytiradi;
- hamdardlikni oshiradi;
- ijodkorlikni kuchaytiradi;
- dunyoqarashni kengaytiradi;
- shaxsiy va kasbiy o'sishga xizmat qiladi;

● sog'lom uyquni ta'minlaydi. Axborot shovqini kuchaygan zamonda kitob o'qish inson uchun sokinlik, chuqur fikrlash va ichki o'sish makonidir.

Har kuni kamida 15–20 daqiqa o'qish odatini shakllantirish – bu kelajakdagi bilim, tafakkur va muvaffaqiyatga kiritilgan eng samarali investitsiya. Bugun bir sahifa o'qing. Ertaga o'sha sahifalar sizni o'zgartira boshlaydi.

Jeyms Klir “Atom odatlar” kitobida aytganidek, “Kim agar o'zini o'zgartirmoqchi bo'lsa, kichik odatlardan boshlashi darkor”.

**III darajali serjant
Bahrom HAYOTOV,
Mudofaa vazirligi Merganlarni
tayyorlash markazi katta yo'riqchisi**

Estetik zavq



Uyimizdagi “askarlar” yoxud “kislород patrullari”

qiziq boshlab, uni dunyodagi eng ko'p kislorod chiqaruvchi besh turdagi xona gullari ichida o'rin olganini va kechasi ham kislorod chiqarishi, shuningdek uncha parvarish talab qilmasligi bilan e'tiborimni tortgan edi. Qisqa fursatlarda o'sib, yana ildizidan yangi novdalar bera boshladi. Parvarish jarayonida tabiiy usullardan foydalandim – masalan, banan po'stlog'idan tayyorlangan aralashma bilan oziqlantirdim. Internet orqali olingan ma'lumotlar va maslahatlar ham asqatdi.

Bu o'simlikning eng e'tiborli jihati issiq va yorug'likdan ham cho'chimasligi bo'ldi. Muntazam, ammo oddiy parvarishning o'zi yetarli. Sabrli va chidamli. Ko'paygan nihollarini harbiy qismning xonalari, hatto xonadonimga ham tarqatdim.

Asosiy natijani qayerda sezdim? Sansevierianing haqiqiy foydasini yaqinda chuqurroq angladim. 3-sinfda o'qiydigan qizim Kamolaning xona derazasi oldiga 7 dona tuvakka ekib qo'yib, oradan biroz vaqt o'tgach, qizimning uyquasi tartibga tushganini, charchoq hissi kamayganini payqadim. Uning o'rmini serharakatlik va uyquga to'yib uyg'onishi egalladi, shuningdek darslarni yanada tez sur'atda o'zlashtirishi va yodda saqlash qobiliyati mustahkamlana bordi.

Albatta, bu jarayonni faqat bir omil bilan bog'lash orqali xulosa chiqarmaslik mumkin. Ammo xonadagi toza va yangilangan havo farzandimning umumiy holatiga ijobiy ta'sir qilgani rost.

Keyinroq yana bir kutilmagan holatning guvohi bo'ldim. Yaqinda shahrimizda kuchli yog'ingarchilik kuzatildi. Shu sabab gul tuvaklarini toza va nam havoga chiqarsam, foydali bo'ladi, degan o'y bilan ularni 4 kun tashqariga chiqarib qo'ydim. Shu davr ichida farzandlarimning uyqu rejimi buzila boshladi. Kech

yotish, ertalab injiqlik, uyg'onishda qiynalish holatlari paydo bo'ldi. Muntazam bog'cha va to'garaklarga kech qolish holati ham kuzatildi. Avvaliga e'tibor bermadim. So'ng gullarni yana ichkariga oldim. Bir necha kun ichida vaziyat yana me'yoriga tushdi. Shunda yashil o'simliklarning xonadagi muhitga qanchalik ta'sir ko'rsatishini yanada chuqurroq angladim.

Yashillik ongli tanlov ekaniga yana bir bor amin bo'ldim. Sansevieria, aloe vera va xlorofitum oddiy bezak emas ekan. Ular yopiq muhitda tabiiy muvozanatni saqlashga yordam beruvchi o'simliklardir. Parvarishi qiyin bo'lmagan maxsus sharoit talab qilmaydigan bu turdagi gullar bor xonada sog'lom turmush borligi seziladi.

Gul ekish bu vaqt o'tkazish emas! Balki bu mas'uliyatdir. Bu e'tibor, tartib. Uyda yashillik bo'lishi – muhitga jon kirishi, deb hisoblayman. Bugun xonamizda bir nechta tuvak gul bo'lsa, ertaga u ko'payadi. Bir niholdan bir nechta novda unib chiqqani kabi e'tibor va mehr ham ko'payib boradi. Shuning uchun ularni “Uyimizdagi askarlar” deb atadim. Ular jim xizmat qiladi. Ammo ta'siri sezilarli. Yashillik. Go'zalik. Estetik zavq. Shifobaxsh.

Xulosa o'zingizga havola. Qadrli safdoshlarim, shuni unutmangki, osmono'par binolarni ham ko'rkam ko'rsatuvchi bezagi, mustahkam tutib turuvchi poydevori bor. Biz ushbu bezak va poydevorni dastlab qalbimizda, Vatanga muhabbatimizda, so'ng o'z oilamizda va xizmat xonamizda ko'raylik. Biz qo'riqlayotgan ona yurt fazodan yam-yashil ko'ransin, unda sog'lom avlod vakillari baxtli yashasin!

Serjant Farruh URUNOV
Toshkent harbiy okrugi

Gullarga qiziqish yigitlar davrasida ba'zan noto'g'ri talqin qilinadi. Go'yoki, bu erkak kishiga xos mashg'ulot emas. Aslida esa aksincha, tabiatga, go'zallikka, yashillikka mehr qo'yish, o'jizlik emas, balki o'zi va atrofdagilarga befarq bo'lmagan insonning ongli tanlovi.

Yashil o'simlik, jumladan tuvakka o'tqazilgan xona gullari inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir qilib, ofis yoki xonadonga sokinlik, ko'tarinki kayfiyat va estetik zavq bag'ishlaydi. Ayniqsa, yopiq muhitda xizmat qiladiganlar uchun bu juda muhim va foydalidir. Ha, ha, men harbiy xizmatchilarni nazarda tutmoqdaman.

Bir kuni rahbarimiz xonasiga xizmat yuzasidan kirganimda e'tiborim sansevieria (*qilichgul*) guliga tushdi. Uning ildizidan yangi nihol – “bolasi” unib chiqqan edi. Tuprog'ini almashtirish vaqtida yangi ungan nihollaridan oldim va eski tuvakka o'tqazdim.

Rostini aytсам, gullarga jiddiy qiziqishim aynan shu kundan boshlandi. Sansevieria haqidagi ma'lumotlarga

QO'ZI QORINDAN

ZAHARLANISHNING OLDINI OLISH CHORALARI



Yaqinlashib kelayotgan bahor faslida O'zbekistonda yog'ingarchilikning ko'p bo'lishi kutilmoqda, bu esa, o'z navbatida, qir-adirlar va daraxtzor hududlarda turfa zamburug'larni, ya'ni xalqimiz ta'biri bilan aytganda, qo'ziqorinlarning ko'p bo'lishiga sabab bo'ladi.

Aslida qo'ziqorinlar, hayvonot va o'simliklar dunyosining oraliq mahsuloti, ya'ni hayvon ham, o'simlik ham emas. Tabiatda shunday qo'ziqorinlarning yuz mingdan ortiq turi mavjud bo'lib, bizning mamlakatimiz hududida ularning 200 dan ziyod turi uchraydi. Mana shular ichidan 25 turigina iste'mol uchun yaroqli hisoblanadi. Albatta, qo'ziqorinlarda inson tanasi uchun foydali bo'lgan juda ko'p ma'danli moddalar

(kaliy, kalsiy, fosfor) va darmondori (vitamin)lar mavjudligi hamda qondagi xolesterin miqdorini kamaytirishi bilan alohida o'rin tutadi.

Qo'ziqorinda oqsil tuxumdan 2, go'shtdan 3 barobar ko'p ekan. Ammo iste'mol uchun yaroqli bo'lgan va zaharli qo'ziqorinlarni bir-biridan ajratish qiyin, bir-biriga juda o'xshab ketadi. Iste'molga yaroqli qo'ziqorinlar: qo'ziquyruq, qizil qo'ziqorin,

shampinyon, opyonok, smorchok, strochoklardir. Zaharli qo'ziqorinlar: qizil muxomor, kulrang muxomor, satanin, sariq soxta qo'ziqorinlarni bilib-bilmay tanovul qilish, rux metali bilan sirlangan idishlarda saqlangan, tuzlangan yoki marinad qilinganlarini iste'mol qilish zaharlanishning eng ko'p uchraydigan turlaridir. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ba'zi iste'molga yaroqli qo'ziqorinlardan taom tayyorlashdagi qo'pol xatolar ham zaharlanishga olib keladi. Chunki ularning tarkibida zaharli gelvelat kislotasi mavjud bo'lib, qaynoq suvda juda yaxshi eriydi, shuning uchun ularni yaxshilab qaynatib, suvini to'kib tashlab, keyin taom tayyorlash lozim.

Katta yo'llarning yoqalari, zaharli va o'ta zaharli kimyoviy moddalar (*pestitsidlar, gerbitsidlar*) saqlanadigan omborlarning tevarakatofida o'sadigan qo'ziqorinlardan zaharlanish holatlari juda yuqori, sababi qo'ziqorinlarda havo va tuproqdagi ekotoksikantlarni so'rib olish va o'zida saqlash xususiyati juda yuqori.

Madaniy sharoitda yetishtirilayotgan "veshenka", "shampinyon" qo'ziqorinlari va ulardan tayyorlangan konserva mahsulotlari sanitariya-epidemiologiya nazoratining tegishli laboratoriyalarida tahlil qilinib, inson sog'lig'i uchun zararsiz deb topilsa, ularga gigiyenik yaroqlilik sertifikatini beriladi hamda ularni iste'mol qilish hech qanday xavf tug'dirmaydi.

Zaharlanishning klinik belgilari: zaharli qo'ziqorinning turiga ko'ra turlicha bo'ladi. O'zi bilmagan holda zaharli qo'ziqorinni iste'mol qilgan kishi 6-18 soat o'tib, agar qizil muxomordan zaharlangan bo'lsa, juda qisqa vaqtda 1-2 soat ichida

belgi beradi. Chunki uning tarkibida muskarin va muskaridin alkaloidlari mavjud bo'lib, ko'ngli aynib, tez-tez qayt qiladi, alahsirash, ko'p so'lak oqishi, tomir urishi va qon bosimi pasayib ketadi. Oshqozon-ichak faoliyati buzilib, qorinda og'riq paydo bo'ladi va butun a'zoyi badani bo'shashib ketadi.

Organizmga zarari: qo'ziqorin tarkibidagi ksenobiotiklar (*zaharlar*) jigar, buyrak, me'daosti bezi va markaziy asab tizimi a'zolarini qattiq shikastlaydi.

Birinchi tibbiy yordam: qo'ziqorindan zaharlanish alomatlari vujudga kelgan taqdirda bemorga, agar es-hushi joyida bo'lsa, 1-2 litr tuzli eritma iliq holda majburan ichirilib, sun'iy qayt qildiriladi, ya'ni shu yo'l bilan me'dasi yuviladi va zaharning qayta so'rilishining oldi olinadi hamda darhol yaqin joylashgan tibbiyot muassasasiga olib boriladi. Agar me'da yuvilib, undagi zaharli moddalardan xalos etilmasa, ular qonga so'riladi va zaharlanish yanada og'irlashadi. Shifokorga murojaat qilmasdan, bilib-bilmay davolanish og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin. Demak, qo'ziqorindan zaharlanishning dastlabki belgilaridayoq zudlik bilan shifokorga murojaat qilish maqsadga muvofiq.

Bozordan, savdo shoxobchalaridan qo'ziqorin xarid qilmoqchi bo'lsangiz, albatta gigiyenik va muvofiqlik sertifikatlarini va sanitariya-epidemiologiya nazorati laboratoriyasining mutaxassislaridan berilgan ma'lumotnomani talab qiling. Ogoh bo'ling, qo'ziqorinni turg'un savdo shoxobchalaridan, belgilangan joylardan sifatini kafolatlovchi tegishli hujjatlari bor bo'lsagina xarid qiling!

S. YARASHEV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Harbiy tibbiyot instituti katta o'qituvchisi, dotsent



QIZIL MUXOMOR

Konferensiya

KENGASH TARKIBI
TASDIQLANDI

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining navbatdagi hisobot-saylov konferensiyasi o'tkazildi. Unda tashkilot markaziy kengashi rahbariyati, hududiy kengashlarining raislari hamda davlat va jamoat tashkilotlari vakillari ishtirok etdi.

Tadbir boshida "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov tashkilot tomonidan so'nggi 5 yil davomida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida sportning texnik va amaliy turlarini ommalashtirish, mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar haqida hisobot berdi. Hisobot delegatlar tomonidan qabul qilindi.

Konferensiyadan so'ng tashkilot markaziy kengashining yig'ilishi o'tkazilib, unda tashkiliy va asosiy masalalar ko'rib chiqildi. Jumladan, Husan Botirov bir ovozdan yangi muddatga "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi etib saylandi.

Shuningdek, markaziy kengashning yangilangan tarkibi tasdiqlandi. Tashkilot markaziy kengashi raisining tashkiliy-ustav faoliyatini tashkillashtirish va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha birinchi o'rinbosari lavozimiga Otabek Yuldashev, rais o'rinbosari – kasb-hunarga tayyorlash markazi direktori lavozimiga Nizomjon Parmanov hamda raisning moliya-iqtisod va rivojlantirish bo'yicha o'rinbosari lavozimiga Rustam Haydaraliyev munosib deb topilib, bir ovozdan saylandi. Tadbir davomida markaziy kengash hay'ati tarkibi ham tasdiqlandi.

Tadbir so'ngida "Vatanparvar" tashkiloti viloyat kengashlari tasarrufidagi tashkilotlarning faoliyatini takomillashtirish bo'yicha 2026–2030-yillarga mo'ljallangan istiqbolli rivojlanish rejasi va aniq vazifalar belgilab olindi.

O'zbekiston chempionati

BIATLON SPORTCHILARI
BELLASHDI

Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida sportning biatlon turi bo'yicha O'zbekiston chempionati o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan tashkil etilgan musobaqada respublikamizning turli hududlaridan tashrif buyurgan 54 nafar sportchi sprint, individual va mass-start mashqlarida bellashdi.

Musobaqada sportchilardan tog'ning qorli hududlarida belgilangan joyga chang'ida harakatlangan holda kelishlari va pnevmatik miltiqdan nishonni mo'ljalga olishlari talab etildi.

Musobaqaning sprint mashqida 19 yosh va undan katta yoshdagi qizlar o'rtasida Inobat Tojiboyeva 7,5 kilometrlik masofani birinchi bo'lib bosib o'tib,

g'oliblikni qo'lga kiritdi. 10 kilometr masofani o'z ichiga olgan erkaklar bahsida Rolan Rayimqulov 1-o'rinni egalladi.

Individual mashqda ham qizlar o'rtasida 15 kilometrlik masofada Inobat Tojiboyevaga teng keladigani topilmadi. Erkaklar o'rtasida 20 kilometr masofani birinchi bo'lib bosib o'tgan Tursunboy Qosimov 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

15 yosh va undan kichik bo'lgan o'smir sportchilarga mo'ljallangan mass-start mashqida qizlar 3 kilometr, o'g'il bolalar esa 4 kilometr masofani bosib o'tib, nishonni mo'ljalga olishlari talab etildi. Bunda Madina No'monova va Rinat Rayimqulovning qo'llari baland keldi.

G'oliblar va yuqori o'rinlarni qo'lga kiritgan sportchilar Sport vazirligining diplomlari va "Vatanparvar" tashkilotining qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti

Ochiq muloqot

IMKONIYAT VA IMTIYOZLAR

Payshanba – "Yoshlar kuni" doirasida O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasida "Yoshlar: imkoniyat va imtiyozlar" mavzusida uchrashuv va ochiq eshiklar kuni o'tkazildi.

Unda harbiy prokuratura organlarida xizmat qilayotgan 30 yoshgacha bo'lgan yosh xodimlar, shuningdek Milliy gvardiya "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyining va Bektemir tumanidagi 290-umumta'lim maktabining yuqori sinf o'quvchilari ishtirok etdi.

Jarayonda Bosh prokuror o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori O. Xolboyev, shuningdek Yoshlar ishlari agentligining Bektemir va Mirobod tumanlari bo'limlari rahbarlari tomonidan juda katta iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy kuch bo'lgan yoshlarimiz uchun yangi imkoniyat eshiklari ochib berilgan kun – Prezidentimizning yoshlar bilan ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga

bag'ishlangan muloqotining tarixiy ahamiyati, yoshlar uchun ko'zda tutilgan imtiyoz va imkoniyatlar e'tirof etildi.

So'ngra yoshlar bilan ochiq muloqotga kirishilib, ularning fikr-mulohazalari, qiziqish va maqsadlari o'rganildi.

Tadbir asnosida o'quvchi-yoshlar O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tarixi muzeyi bilan tanishdi va o'q otish tayyorgarligi elektron o'quv xonasida o'z mahoratlarini sinab ko'rdi.

**Adliya podpolkovnigi
Botir SOBIROV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy
prokurorining katta yordamchisi**

Tanlov

BALLI, AYOLLAR!

8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasida tizimda xizmat qilib kelayotgan xotin-qizlar o'rtasida "Balli, ayollar!" ko'rik-tanlovi o'tkazildi.

"Yangi O'zbekistonning vatanparvar ayollari" shiori ostida o'tgan tadbirda markaziy studiyadan Bosh prokuratura va O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi mahkamasi xodimalari, Mudofaa vazirligi, Milliy gvardiya, Toshkent harbiy okrugi qo'shinlari qo'mondonligi, Bektemir tumani hokimligi vakillari, harbiy akademik litsey o'quvchilari, joylardagi studiyalardan hududiy harbiy prokuraturalar xodimlari ishtirok etdi.

Tadbirni bosh prokuror o'rinbosari S. Artikova va bosh prokuror o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy

prokurori O. Xolboyev tabrik so'zlari bilan ochib, yurtimizda xotin-qizlarga e'tibor, g'amxo'rlik, yaratib berilgan sharoit va keng imkoniyatlar haqida alohida to'xtalib o'tdi.

Tanlovda ishtirokchilar "Men baxtiyor ayolman" mavzusida tanishtiruv, "Mohir bekajon" mavzusida kashta tikish, darts, "Ayol go'zallik timsoli" mavzusida "Milliy soch turmagi", milliy va zamonaviy raqs, mevalarga ishlov berish va "Bahribayt" shartlari bo'yicha o'zaro bellashdi.

Har bir shart natijasi hakamlar hay'ati tomonidan baholanib, kamchilik va xatolar joyida izohlab borildi. Yakunda g'olib va sovrindorlarga maxsus diplom va esdalik sovg'alar tantanali ravishda topshirildi.

Jarayonda Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambli jamoasining chiqishlari barchaga bayramona kayfiyat bag'ishladi.

**Adliya podpolkovnigi
Gulchehra TURSUNOVA,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy
prokurorining katta yordamchisi**

Yoshlar kuni

UCH AVLOD UCHRASHUVI

Toshkent harbiy prokuraturasi tomonidan O'zbekiston "Milliy fiklanish" demokratik partiyasi Toshkent shahri kengashi, O'zbekiston "Veteran" jangchifaxriy va nogironlari birlashmasi shahar kengashi hamda mudofaa ishlari boshqarmasi hamkorligida chaqiruv yig'ini punktida "Yoshlar kuni" doirasida uch avlod uchrashuvi tashkil etildi.

Tadbirda yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, davlat va jamiyat hayotidagi faolligini oshirish masalalari yuzasidan fikrlar almashildi.

Shuningdek, uch avlod vakillari o'rtasida samimiy muloqot tashkil etilib, boy hayotiy tajriba va tavsiyalar ulashildi.

Mazkur tadbir "Yoshlar kuni" doirasida joylarda amalga oshirilayotgan tizimli ishlarning amaliy ifodasi sifatida yoshlar manfaatlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

**Adliya katta leytenanti
Jaloliddin Manguberdi QUTLIMURODOV,
Toshkent harbiy prokuraturasi tergovchisi**

Uchrashuv

YOSHLAR KUNI DOIRASIDA

Jalaquduq tumanining olis hududi – Oyim qishlog'idagi 32-umumta'lim maktabida yoshlar bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Dastlab yoshlar bilan ochiq muloqot o'tkazilib, yoshlarning qiziqishlari o'rganildi, taklif va fikr-mulohazalari, murojaatlari tinglandi.

Jarayonda yoshlarni kasbga yo'naltirish, bandligini ta'minlashning amaliy chora-tadbirlari ko'rildi hamda ular o'rtasida kitobxonlik va mutolaa keng targ'ib qilindi.

Tadbirda jalb qilingan harbiy xizmatchilar tomonidan qurol-aslahalar

ko'rgazmasi namoyish qilinib, harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish tartibi haqida ma'lumot berildi.

Uchrashuv asnosida vatanparvarlik kabi yuksak fazilatlar e'tirof etildi.

**Adliya podpolkovnigi
Sardor YORMATOV,
Andijon harbiy prokurorining
yordamchisi**

TADBIRLAR SAMARADORLIGI

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi
mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanoarvar"

eshirilmoqda

Keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining Xorazm viloyati kengashi tasarrufidagi Hazorasp tumani 2-sonli o‘quv sport-texnika markazi nodavlat ta’lim muassasasida yoshlarning ma’naviy va jismoniy yetuk bo‘lishlariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jumladan, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni sportning texnik va amaliy turlariga jalb etish hamda ona Vatanga sadoqatli farzandlar sifatida kamol topishlariga ko'maklashishga yo'naltirilgan tadbirlar bu boradagi ishlar sirasidandir. Chunonchi, tuman hokimligi, mudofaa ishlari, maktab va maktabgacha ta'lim bo'limlari, Yoshlar ishlari agentligi va boshqa hamkor tashkilotlar bilan tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilinmoqda. Birgina amaldagi yilning o'tgan oylari mobaynida muhim sanalarga bag'ishlab turli sport musobaqalari o'tkazilib, ularda yoshlarning faol ishtiroki ta'minlandi.

Ayni paytda markazda faoliyat ko'rsatayotgan "Havo miltig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon", "Duatlon" hamda "Karting" kabi seksiya va to'garaklarda ellik nafarga yaqin iqtidorli yosh muntazam shug'ullanmoqda.

– Shu kunlarda haydovchilar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ham tashkilotimizning muhim yoʻnalishlaridan biridir, – deydi markaz direktori Poʻlat Norboyev.

– Buning uchun oʻtgan yil yakunida turli toifali haydovchilar tayyorlashda amaliy mashgʻulotlar olib borish uchun zamonaviy talablarga mos ravishda bunyod etilgan oʻquv avtodromi

foydalanishga topshirilgan edi. Endilikda tinglovchilar uchun barcha qulayliklar yaratilib, zamonaviy avtodromda amaliy mashg'ulotlar olib borilmoqda. Zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan qayta jihozlangan markazda shu kunlarda "A", "B", "BC", "BE", "CE", "D" toifali haydovchilikka nomzodlar o'qitilmoqda. Shuningdek, traktorchimashinist, kombaynchi kasblarini egallamoqchi bo'lgan yoshlar uchun ham maxsus o'quv kurslari tashkil etilgan.

Maxsus bilim va tajribaga
ega o'qituvchi va
amaliy boshqarishni
o'rgatuvchi-ustalar
tomonidan
berilayotgan
bilim va
ko'nikmalarni
puxta
o'zlashtirgan
tinglovchilar
belgilangan
imtihonlardan
muvaffaqiyat bilan
o'tmoqda.

Bundan tashqari, markazda ma'naviyat va harbiy-vatanparvarlik targ'iboti doirasida turli tadbirlar o'tkazib borilishi ham an'anaga aylangan. Yaqinda mana shunday ezu ishlarining uzviy davomi sifatida ma'naviy-ma'rifiy va sport tadbirlari o'tkazildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni sportning texnik va amaliy turlariga jalb etishdir.

Ayniqsa, Navro'z umumxalq bayrami arafasida o'tkazilayotgan bunday tadbirlar samaradorligini oshirishga yanada keng e'tibor qaratilmoqda.

Akbar ALLAMURODOV

Fursatdan foydalanib, “Vatanparvar” tashkiloti Xazorasp tumani 2-sonli O‘STM NTM jamoasi yurtimizdagi go‘zal va dilbar ayollarni 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan muborakbod etadi.

Muhtaram onaxonlar, aziz opa-singillar oilangizdan baxt va omad, fayz-u baraka hech ham arimasin! Bayramingiz muborak bo'lsin!



Navro'z shukhi

HARBIY SHAHARCHADA

bahor tarovati



Bahor nafasi yurtimiz osmonini musaffolikka, qalblarni ezgulikka chorlagan shunday shukuhli kunlarda yurtimizning janubiy sarhadlarida ulug' ayyom — Navro'zi olamni kutib olish tadbirlariga allaqachon tadorik boshlangan. Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Xayrobod garnizonida joylashgan harbiy shaharchada "Navro'z shukhi" hamda "Bahor nafasi, Navro'z nafasi — yuraklarda shodlik!" shiorlari ostida o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy va madaniy tadbir fikrimizning yaqqol dalilidir. Ahamiyatlisi, bu tadbir harbiy xizmatchilar hayotida yorqin sahifa bo'ldi, hammaga bayramona kayfiyat ulashdi, yosh avlod qalbida milliy qadriyatlarga hurmat, vatanparvarlik va birdamlik tuyg'ularini yanada mustahkamladi.

Tadbir dastlab Surxondaryo vohasiga xos milliy qadriyat va an'analar targ'iboti bilan boshlandi. Harbiy xizmatchilar o'rtasida milliy cholg'u asboblari — chanqovuz va do'mbira ijrochiligi bo'yicha musobaqalar tashkil etildi. Ishtirokchilar bellashuvda nafaqat o'z iste'dodlarini namoyon etdi, balki milliy san'atimizga bo'lgan mehr va ehtiromlarini ham amalda isbotladi. Jaranglagan kuy-qo'shiqlar harbiy shaharcha hududi uzra yoyilib, yosh-u qari ko'ngliga xush kayfiyat bag'ishladi.

Milliy o'yinlar bo'yicha o'tkazilgan bellashuvlar esa tadbirning yana qizg'in bo'lishini ta'minladi. Do'stona raqobat, jamoaviy hamjihatlik va sog'lom muhit barcha ishtirokchilarni bir maqsad — birdamlik va ezgulik atrofida

jipslashtirdi. Bayram dasturining ikkinchi qismida osh musobaqasi o'tkazildi. Harbiy xizmatchilar milliy taomimiz — oshni tayyorlash borasida mahorat sinovidan o'tdi.

Harbiy xizmatchilar oilalari va farzandlari uchun tashkil etilgan alohida bayram dasturi ham barchaga birdek manzur bo'ldi. Bolajonlar o'rtasida o'tkazilgan varrak uchirish tadbirida rang-barang varraklar musaffo osmon bag'rini to'ldirdi. Bu manzara barchaga quvonch va shodlik ulashdi. San'atkorlar tomonidan taqdim etilgan konsert dasturi bayramga yakun yasadi.

Bayram qahramonlari

Navro'z tadbirlarida faol ishtirok etib, tomoshabinlar e'tiborini qozongan askarlardan biri Jaloliddin Mamasoliyev



bo'ladi. Farg'ona viloyatidan muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan bu yigit Surxondaryo vohasining milliy an'analariga, milliy cholg'u asboblari, ularni ijro etishga bo'lgan qiziqishi ortganini ta'kidladi.

— Ustozlarim yordamida milliy cholg'u asbobi — chanqovuz chalishni o'rgandim. Hozir mustaqil ravishda kuy ijro eta olaman. Bu men uchun katta yutuq, — deydi u. — To'g'ri, dastlab musiqa asbobidan chiqadigan har bir ovozni to'g'ri his qilishga qiynalganman. Lekin ustozlarimning saboqlari, yo'l-yo'riqlari sabab qiyinchiliklar ortda qoldi. Hozir mustaqil ravishda kuy ijro eta olaman. Bu men uchun katta yutuq. Chanqovuzda ijro etilayotgan kuylar nafaqat musiqiy mahoratimni oshirdi, balki menda madaniy merosimizni qadrlash va uni davom ettirish tuyg'ularini ham mustahkamladi. Armiya safida chiniqdim, toblandim. Vatan tuyg'usini his qildim, yaqinlar qadriga yetdim. Kelajagimni armiya bilan bog'lash istagi paydo bo'lgan. Bu men uchun shara.

Andijon viloyatidan muddatli harbiy xizmatga kelgan oddiy askar Xurshid Sobirov ham san'at shinavandalaridan biri.

— Denovlik Akram baxshidan do'mbira chertishni o'rgandim. Hozir bir necha milliy kuy, terma va dostonlarni mustaqil ijro eta olaman. Bu men uchun faxr, — deydi oddiy askar Xurshid Sobirov. — Do'mbirada chalingan kuyni ilk bor eshitganimda, unda xalqimiz tarixi, qadriyatlari va ruhiy go'zalligi mujassam ekanini his qilganman. Uning kuyi faqat musiqiy zavq emas, balki milliy merosimizga bo'lgan mehr va vatanparvarlik tuyg'usini ham mustahkamlaydi. Shuning uchun ham do'mbira chertishga mehrim tushgan. Do'mbira chalish men uchun faqat san'at emas, balki ichki dunyomni namoyon etish, his-tuyg'ularimni har bir ovoz orqali yetkazish imkoniyati hamdir. Armiya safida intizom, mas'uliyat va vatanparvarlik tuyg'ulari yanada mustahkamlandi. Harbiy qismda o'tgan har bir kun, har bir mashg'ulot men uchun taassurotlarga boy bo'ldi. Xullas, armiya saflarida o'tgan bir yil muddat qimmatli davr sifatida hayot sahifamdan joy oldi.

Bu yoshlarning tadbirdagi ishtiroki nafaqat bayramga o'ziga xos shukuh ulashdi, balki harbiy qismdagi do'stona muhit, birdamlik va hamjihatlikni ham yanada mustahkamladi.

III darajali serjant
Akbar AHMEDOV
Termiz garnizoni



MUASSIS
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MUDOFAA VAZIRLIGI

VATANPARVAR



Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
podpolkovnik Ulug'bek Fattaxov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti — "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: kapitan Dilshod Ro'ziqulov
Sahifalovchi: Tohirjon Turg'unboyev
Musahhih: Mastura Qurbonova

Buyurtma: 601
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 34 088 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Muruvvati-dil press" MChJ mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqib boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

"Muruvvati-dil press" MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri Chilonzor tumani "Nafosat" MFY Qatortol ko'chasi, 21-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati bilan bog'lanish uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA

www.mudofaa.uz
t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi
www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@umail.uz
mudofaavazirligi
mudofaavazirligi
www.youtube.com/c/UzArmiya